

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 230 (1019), 2023-yil 4-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



TURKIY XALQLARNING OVOZI BUTUN DUNYO BO‘YLAB YANADA BALAND, YANADA KUCHLIROQ YANGRAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdi.



Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raisligida o‘tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti

Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston

Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, shuningdek, TDT bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi. Kun tartibiga muvofiq, TDT

doirasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning bugungi holati va istiqbol-lari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda tili, dini va ma‘naviy qadriyatlarini bir-biriga chambarchas bog‘langan turkiy xalqlarning ovozi dunyo bo‘ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangrayotganini ta‘kidladi. Tashkilot bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o‘ziga xos muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari global xavfsizlikni ta‘minlashda yangi muammolar yuzaga kelayotgani, xalqaro huquq me‘yorlaridan chekinish holatlari ko‘payib borayotganini ko‘rsatib o‘tdi.

Falastin — Isroil mojarosi keyingi paytda xavfli tus olgani jiddiy xavotirga solayotgani qayd etildi. Qurolli to‘qnashuvlar oqibatida tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasida qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, zoni keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston yetakchisi tomonlarni zudlik bilan

harbiy harakatlarga barham berib, o‘t ochishni to‘xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqirdi. Falastin — Isroil muammosini BMT rezolyutsiyalariga muvofiq “ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili asosida hal etish zarurligi borasida O‘zbekistonning pozitsiyasi qat‘iy ekani bildirildi.

O‘zbekistonning TDT mamlakatlari bilan hamkorligi xususida so‘z yuritir ekan, davlatimiz rahbari mamlakatimiz Tashkilotning barcha a‘zolari bilan strategik sheriklik aloqalarini o‘rnatganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi. O‘tgan yili Samarqand sammitida imzolangan muhim hujjatlar izchil bajarilmoqda.

Tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Xususan, Turkiy xalqlar birdamligini, ularning buyuk o‘tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan Turkiy dunyo xartiyasini ishlab chiqish taklif qilindi.

Sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish

ishlarini faollashtirish muhimligi qayd etilib, ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish taklifi bildirildi.

Turkiy davlatlar savdo hamkorligi tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha boshlangan amaliy ishlarni to‘liq ma‘qullab, O‘zbekiston Prezidenti markaz imkoniyatlaridan savdo to‘siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko‘paytirish bo‘yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishda unumli foydalanish zarurligiga e‘tibor qaratildi.

Global logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini rivojlantirish, diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirish masalalari dolzarb ekani ta‘kidlandi. Shu ma‘noda, davlatimiz rahbari O‘rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo‘shimcha ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o‘tadigan yo‘laklarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo‘llab-quvvatladi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DAVLAT RAHBARLARI KENGASHI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich! Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Avvalambor, siz, azizlar bilan yana diydor ko‘ri-shib turganimdan g‘oyat mamnunman.

Bugungi sammitni yuksak darajada tashkil et-gani uchun Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

So‘zimizni buyuk ajdodimiz — qadimiy turk davlati asoschilaridan biri Bilga Xoqonning quyidagi da‘vati bilan boshlamoqchiman: **“Ey turkiy elim, o‘zligingga qayt, o‘zingni ang-la — yanada yuksalgaysan!”**

Ushbu ibratli so‘zlar bugungi shiddatli zamon-da — Turkiy davlatlar tashkiloti o‘z faoliyatini tobo-ra takomillashtirib borayotgan bir davrda albatta, chuqur ma‘noga ega. Tili, dini va yuraklari bir-biri-ga chambarchas bog‘langan qardosh xalqlarimiz ovozi endilikda dunyo bo‘ylab yanada baland, yanada kuchliroq yangraymoqda.

Fursatdan foydalanib, do‘st Qozog‘iston eli-ni yaqinda keng nishonlangan mamlakat milliy bayrami — Respublika kuni munosabati bilan chin qalbidan muborakbod etaman. Shuningdek, Turkiya Prezidenti, qardoshim Rejep Tayyip Erdog‘an Janobi Oliylarini va butun turk xalqini Respublika e‘lon qilingan kunning qut-lug‘ 100 yillik tantanalari bilan samimiy tabriklay-man.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Barchangiz yaxshi bilasiz, turkiy dunyoda do‘st Ozarbayjon xalqi o‘zining munosib o‘rni va katta obro‘-e‘tiboriga ega. So‘nggi yillarda Ozarbayjon xalqi qadri birodarim Ilhom Haydarovich yetak-chiligida olamshumul yutuqlarni qo‘lga kiritmoqda. Tarixiy adolat qaror topib, mamlakatning ajral-mas qismi bo‘lgan Qorabog‘ hududini bunyodkorlik makoniga aylantirish borasida ulkan natijalarga erishilmoqda.

Men avgust oyida Shusha va Fuzuliy sha-harlarida bo‘lib, keng ko‘lamli o‘zgarishlarga, zamonaviy infratuzilma barpo etilayotgani, vay-ron bo‘lgan madaniy meros obyektlari qayta tikla-nayotganiga shaxsan guvoh bo‘ldim.

Ozarbayjon xalqini buyuk g‘alaba — mamlakat hududiy yaxlitligi to‘liq tiklangani bilan yana bir bor chin yurakdan samimiy tabriklayman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Turkiy davlatlar tashkiloti bugungi kunda shakl-lanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro ins-titutlar tizimida o‘ziga xos muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. 160 million aholini qamrab olgan Tashkilotimiz hududi katta iqtisodiy imkoniyatlar makoni hamdir.

Bizning mamlakatimiz Tashkilotning barcha a‘zolari bilan strategik sheriklik aloqalari o‘rnat-ganini katta mamnuniyat bilan aytib o‘tmuqchi-man.

O‘tgan yili **“Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari”** shiori ostida bo‘lgan Samarqand sammitida imzo-langan hujjatlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

O‘zbekiston raisligi davrida yuzdan ortiq turli tadbirlar o‘tkazildi, muhim tashabbuslar ilgari su-rildi. **“Turkiy nigoh — 2040” konseptual dasturi asosida amaliy hamkorlikning yangi va yanada samarali mexanizmlari yaratildi.** Jumladan, Turkiy davlatlar Kasaba uyushmalari tashkiloti, Fazo tadqiqotlari akademiyasi, Jo‘g‘rofiy ken-gash, Qurg‘ochilikni bartaraf etish instituti, No-tarial idoralar uyushmasi kabi yangi tuzilmalar ish boshladi. Qator nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning turli ixtisoslashgan institutlari, Islom ham-korlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqin sheriklik aloqalari o‘rnatildi.

Global iqtisodiy inqiroz kuchayib borayotgani-ga qaramasdan, olib borayotgan tizimli ishlarimiz natijasida o‘zaro savdo hajmi o‘smoqda.

O‘zbekistonning raisligi davrida bizga faol ko‘-mak ko‘rsatgan barcha davlatlarga va Tashkilot Kotibiyatiga yana bir bor minnatdorlik bildiraman. Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Barchamiz guvoh bo‘laypmiz, bugungi kun-da jahon miqosida ishonch inqirozi tobora avj olmoqda. Global xavfsizlikni ta‘minlashda yangi muammolar yuzaga kelmoqda va xalqaro huquq me‘yorlaridan chekinish holatlari kuchaymoqda.

Ayniqsa, Yaqin Sharqda uzoq vaqtdan buyon davom etayotgan Falastin — Isroil muammosi-ni nihoyatda xavfli tus olgani barchamizni jiddiy xavotirga solmoqda. Qurolli to‘qnashuvda tinch aholi, ayniqsa, keksalar, ayollar va bolalar orasi-da qurbonlar va jarohat olganlar soni keskin ortib, zoni keng yoyilib ketish xavfi kuchaymoqda.

Shu munosabat bilan tomonlarni zudlik bilan harbiy harakatlarga barham berib, o‘t ochishni to‘xtatishga, gumanitar maqsadlarda murosaga kelishga chaqiramiz.

Mazkur muammoning yagona va eng adolati yechimi — nizoni **“ikki xalq uchun ikki davlat” tamoyili** asosida hal etishdir.

Falastin xalqi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalarida belgilanganidek, mustaqil dav-lat barpo etish huquqiga ega. Biz Tashkilotimiz doirasida bu boradagi yakdillik va qat‘iy pozitsiya-mizni butun dunyoga e‘lon qilishimiz zarur.

Hurmatli sammit qatnashchilari!

“Turkiy davri” shiori ostida o‘tayotgan bugungi sammitimizda ko‘p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarimizni yanada kengaytirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchiidan, Tashkilot doirasida o‘zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash, birgalikda turli to‘siqlarni samarali yengib o‘tish bosh maqsadimizdir.

Shu munosabat bilan Turkiy xalqlar birdamli-gini, ularning buyuk o‘tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan **“Turkiy dunyo xartiyasi”**ni ishlab chiqish zarur, deb hisoblay-man. Ushbu o‘ziga xos ramziy qomusni sohaning yetuk olimlari va ekspertlar ishtirokida tayyorlash-ni taklif qilaman.

Ikkinchiidan, shu kunlarda Turkiy investitsiya fondi o‘z ishini boshlaydi. Davlatlarimiz o‘rtasi-da sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish maqsa-dida keyingi bosqichda Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini ham faollashtirishimiz kerak. Ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirishga tayyormiz.

Uchinchiidan, Turkiy davlatlar savdo ham-korligi tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha boshlangan amaliy ishlarni to‘liq ma‘qullaymiz. Kelgusida Markaz imkoniyatlaridan unumli foy-dalangan holda, birgalikda savdo to‘siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko‘pay-tirish bo‘yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlanti-rishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

To‘rtinchiidan, global logistika zanjirlari va transport yo‘laklarini rivojlantirish va diversifikatsi-

ya qilish, yagona tranzit tarmog‘ini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega.

Yuk tashuvlariga o‘tib borayotgan talabni qondirish maqsadida O‘rta koridor salohiyati-ni kengaytirish choralarini qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, qo‘shimcha ko‘ptarmoqli yo‘na-lishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yev-ropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o‘tadigan koridorlarni rivojlantirish hamda transport xizmat-larini raqamlashtirish tarafdorimiz.

Davlatlarimiz Temir yo‘l idoralari kengashini ta‘sis etishni va bu tuzilmaning direksiyasini yur-timizda joylashtirishni taklif etamiz.

Beshinchiidan, ekologiya sohasida keng gamrovli hamkorlikni rivojlantirishdan man-faaddormiz.

Qadimdan ajdodlarimiz ona tabiat bilan uyg‘un va hamohang bo‘lib yashaganlar. Afsus-ki, bugungi kunda tabiatga nisbatan iste‘mol-chilik kayfiyati kuchayib bormoqda. Iqlim o‘zga-rishlari tufayli yuzaga kelayotgan turli muammo-lardan butun insoniyat qattiq aziyat chekmoqda. Bunday holat barchamizdan kechiktirib bo‘l-maydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

Vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko‘rsata-digan Turkiy ekologiya forumining tuzilishi bu yo‘lda muhim qadam bo‘lishi shubhasiz. Bunday ta‘sirchan mexanizm Tashkilotimiz faoliyati sa-maradorligini oshirishga qaratilgan rejalarimizga mosdir.

Oltinchiidan, turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g‘oyasi texnologik taraqqiyot va ilg‘or bilimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Ijodiy fikrlaydigan, iste‘dodli va shijoatli yosh-larimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi Renes-sansini barpo etishiga ishonchim komil. Bu yo‘lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfi-yotlar va ma‘naviy meros mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Ta‘kidlash o‘rinliki, o‘tgan asrda yashagan jadid bobolarimizning ibratli faoliyati, ilmiy-ijodiy mero-sini chuqur o‘rganish yuzasidan a‘zo mamlakat-larda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo‘lib o‘tadigan **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqol**

va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro anjumanda vakillaringizni faol ishtirok etishga tak-lif etamiz.

Shu bilan birga, yangilikka intilib yashay-digan, tashabbuskor o‘g‘il-qizlarni rag‘batlantirish uchun O‘zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yosh-lari markazini ochishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘pmil-latli Afg‘oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy shartidir. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e‘tiboridan tobora chetda qolmoqda.

Afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami ko‘r-satishni susaytirmaslik, bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq me-xanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz. Bizga mintaqaviy sheriklik va barcha qo‘shnilar bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etadigan, tinch va barqaror Afg‘oniston kerak.

Biz ilgari surayotgan Transafg‘on temir yo‘lini barpo etish tashabbusi aynan mana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

O‘zbekiston afg‘on xalqiga bundan buyon ham zarur yordami berib boradi. Termizdagi logistika xabi orqali gumanitar ko‘mak ko‘rsatishni, ta‘lim markazida esa afg‘on fuqarolarini o‘qitishni faol davom ettiramiz.

Qadri do‘stlar!

Fursatdan foydalanib, Davlat rahbarlari ken-gashida raislikni qabul qilib olayotgan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga ulkan zafarlar tilayman.

Bugun qabul qilinayotgan muhim hujjatlar va qarorlar, jumladan, sammit deklaratsiyasi ham-da Ostona akti mamlakatlarimizning yorqin turkiy kelajak sari navbatdagi dadil qadamlari bo‘lishiga ishonaman.

O‘z tarixi davomida ko‘p-ko‘p sinovlarni boshi-dan kechirgan va ularga birgalikda yechim topgan qardosh xalqlarimiz kelgusida ham buyuk ishlarni amalga oshirishi shubhasiz. E‘tiboringiz uchun rahmat.

TURKIY XALQLARNING OVOZI BUTUN DUNYO BO'YLAB YANADA BALAND, YANADA KUCHLIROQ YANGRAYDI

Boshlanishi 1-betda

Tashkilotning Temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etish va bu tuzilmaning direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklif etildi.

Ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish tashabbusi ilgari surildi.

O'zbekiston yetakchisi ijodiy fikrlaydigan, iste'dodli va shijoati yoshlar istiqbolida turkiy dunyoning yangi Renesansini barpo etishga ishonch bildirdi. Yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o'g'irlarimizni rag'batlantirish uchun O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish taklif qilindi.

Jadid bolarimizning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish muhimligini qayd etib, O'zbekiston Prezidenti TDT mamlakatlari vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol

Mamlakatimiz yetakchisi afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

Majlisda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya, Vengriya, Turkmaniston delegatsiyalari rahbarlari, tashkilot bosh kotibi ham so'zga chiqdi. Sammit yakunida TDT doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qator bitim va qarorlar qabul qilindi.

Tashkilotga raislik Qozog'iston Respublikasiga o'tdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti Davlatlar rahbarlari kengashi yig'ilishi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlarini va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qo'shgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — "Turkiy dun-

Orban, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdi.

Tashkilot davlatlari rahbarlari nomidan mukofotni Qozog'iston Prezidenti topshirdi.

— Bu mukofotni men birinchi navbatda chinakam birodarlik rishtalari asosida yangidan yuksalayotgan yaqin do'stligimiz va hamkorligimiz ramzi, deb bilaman, — dedi marosimda davlatimiz rahbari, hamkasblarga minnatdorlik bildirib.

Oxirgi davrda Turkiy dunyoning nufuzi va salohiyati har qachongidan ham ko'proq yuksalayotgani alohida qayd etildi. O'zbekiston 2019-yilda TDTga a'zo bo'lib kirganidan buyon mamlakatimiz tomonidan turkiy davlatlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida 100 dan ziyod turli tadbirlar o'tkazildi, amaliy hamkorlikning yangi samarali mexanizmlari yaratildi, nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Tashkilotga a'zo barcha davlatlar bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalar izchil kengaymoqda, strategik sheriklik munosabatlari o'rnatildi, savdo hajmlari ortmoqda, kooperatsiya kuchaymoqda.

— Barchamizning orzu va maqsadlarimiz, intilish va harakatlarimiz uyg'un va hamohangdir. Azaldan do'st va qarodosh bo'lgan turkiy xalqlarimiz bundan keyin ham ahil va hamjihat bo'lib, yorug' kelajakni birgalikda bunyod etadilar, — dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'istonga amaliy tashrifi yakunlandi.

O'ZA

OXIRGI DAVRDA TURKIY DUNYONING NUFUZI VA SALOHİYATI HAR QACHONGIDAN HAM KO'PROQ YUKSALAYOTGANI ALOHIDA QAYD ETILDI. O'ZBEKISTON 2019-YILDA TDTGA A'ZO BO'LIB KIRGANIDAN BUYON MAMLAKATIMIZ TOMONIDAN TURKIY DAVLATLAR O'RTASIDA DO'STLIK, YAXSHI QO'SHNICHILIK VA KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN 50 DAN ORTIQ TAKLIF VA TASHABBUSLAR ILGARI SURILDI.

va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro anjumanda faol ishtirok etishga taklif etdi.

So'zini yakunlar ekan, O'zbekiston rahbari ishtirokchilar e'tiborini ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pmillatli jafokash Afg'oniston xalqiga qaratdi.

Yoning oliy ordeni"ni tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan, Vengriya Bosh vaziri Viktor

BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON TOMONIDAN ILGARI SURILGAN TASHABBUSLAR

TURKIY DUNYONING BOY MADANIY, TARIXIY VA IQTISODIY SALOHİYATIDAN FOYDALANISHGA QARATILGAN STRATEGIK QARASHLARNI YAQQOL AKS ETTIRADI

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-3-noyabr kunlari Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining Ostona shahrida bo'lib o'tgan TDT sammitidagi nutqida ilgari surilgan muhim tashabbuslar, o'z navbatida, xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert doiralari vakillarini tomonidan ham yuksak baholanmoqda.

Emmanuel DYUPYU, Fransiyaning Yevropada istiqbollar va xavfsizlik instituti (IPSE) prezidenti:

— Fransiya mintaqadagi integratsiya jaryonlarini diqqat bilan kuzatib borishmoqda. TDT sammiti yakunlari O'zbekiston va TDTga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi samarali hamda

o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Tashkilotga a'zo davlatlarning ustuvor yo'nalishlarga muvofiq oliy darajada muloqotni davom ettirish majburiyati barcha turkiy xalqlar farovonligi va xavfsizligining kafolatidir.

O'tgan yillar davomida O'zbekiston ushbu xalqaro tuzilmaning chinakam munosib a'zosi bo'lib, unda yetakchi sifatida muhim rol o'ynadi. Tashkilot doirasida, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, ekologik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlan-



Ilgar VELIZADE, Janubiy Kavkaz siyosatshunoslari klubi rahbari.

Ilgar VELIZADE, Janubiy Kavkaz siyosatshunoslari klubi rahbari:

— O'zbekiston o'zi a'zo bo'lgan xalqaro tuzilmalar rivojiga doimo amaliy hissa qo'shgan va qo'shib kelmoqda. Toshkent TDTga nisbatan yaqinda a'zo bo'lganiga qaramay, O'zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan turkiy davlatlarni yaqinlashtirish va hamkorlik qilishga qaratilgan tashabbuslar o'zining amaliy ifodasini topdi.

Toshkent tuzilma davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning tranzit-transport salohiyatini oshirish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Ostona sammitida so'zlagan nutqida ishtirokchilarning nafaqat

iqtsodiyot va transport, balki gumanitar masalalarga ham qiziqishini oshirgan qator yangi takliflar bilan chiqdi. Uning O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish borasidagi tashabbusining ahamiyatini ta'kidlash kifoya.

Bundan tashqari, Temir yo'l idoralari kengashini ta'sis etish va ushbu tuzilmaning direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi. Ushbu taklif nafaqat TDTga a'zo davlatlarning, balki mintaqadan tashqari mamlakatlarning manfaatlarini ta'minlovchi global transport va logistika markaziga aylantirish rejalariga juda mos keladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning TDT oliy ordeni bilan taqdirlangani O'zbekiston



Mirkomil BOZOROV, Adliya vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari.

Fariza SHAM, Malayziya Islom sivilizatsiyasi instituti direktori:

— O'zbekiston TDTga a'zo bo'lganidan buyon tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish uchun jiddiy sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Boshqa a'zo davlatlarning faolligi, shuningdek, 15 ta davlatning tashkilotga kuzatuvchi sifatida qo'shilishga qiziqishi sezilarli darajada oshdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashkilot a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga ko'maklashish maqsadida 50 dan ortiq tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Amalga oshirilgan tashabbuslar orasida Yosh tadbirkorlar forumini tashkil etish, transport va bojxona tartib-qoidalarini raqamlashtirish bo'yicha loyihalarni, Turkiy investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi bitimni imzolash va boshqa ko'plab masalalar alohida e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston rahbarining Falastin — Isroil inqirozi bo'yicha qat'iyl munosabati, Yaqin Sharqda harbiy harakatlarni to'xtatish va muammoni "ikki xalq uchun ikki davlat" tamoyili asosida hal qilishga chaqiruvi uning donishmandligini yana bir bor namoyon etdi.

O'zbekiston rahbarining sammit chog'ida e'lon qilingan yangi tashabbuslari ham mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash juda muhim va dolzarbdir. Shu nuqtayi nazardan, Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish va ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish, Turk dunyosi nizomini ishlab chiqish, transport yo'laklari va yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish, global logistika ta'minot zanjirlarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha takliflarni alohida ta'kidlamochim.



Jon LI, TiEmSi Akademiyasi bosh direktori (Singapur):

— Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar rivojini va misli ko'rilgan sa'y-harakatlarni diqqat bilan kuzatib boraman hamda TiEmSi Akademiyasi nomidan hayrat va e'tirofmini mamnuhiyat bilan bildirmoqchiman.

O'zbekiston yetakchisining turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga intilishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Uning TDT sammiti ishidagi faol ishtiroki nafaqat O'zbekistonning milliy sa'y-harakatlarini namoyish etadi, balki a'zo davlatlar o'rtasida umumiy o'sish va sinergiyaga yo'l ochadi. TDT hamjihatlik qudrati, mushtarak tarix va mushtarak qarashlardan dalolat beradi. Qayd etish kerakki, O'zbekistonning tashkilotga raisligi uning salohiyatini yanada kuchaytirdi.

Raislik davridagi misli ko'rilgan muvaffaqiyat va yutuqlari turkiy dunyoda hamkorlikni rivojlantirish va taraqqiyotga sodiqligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy nomidagi mukofotning ta'sis etilishi, O'zbekistonning Turkiy madaniyat xalqaro tashkilotiga a'zo bo'lishi e'tiborga loyiqdir.

TDTning so'nggi sammitlarida O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan qator tashabbuslar turkiy dunyoning boy madaniy, tarixiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanishga qaratilgan strategik qarashlarni yaqqol aks ettiradi.

TiEmSi Akademiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyevning rahbarligi va O'zbekistonning TDTdagi faol rolidan ilhomlanishi davom etmoqda. Ishonamizki, bugun qo'yilgan umumiy qadriyatlar va o'zaro hurmatga asoslangan mustahkam poydevor barcha ishtirokchi mamlakatlarni farovonlik sari eltadi.



Yaqub SHAYX, Pokiston Senati a'zosi:

— Pokistonlik siyosatchilar, ishbiarmonlar va ekspertlar O'zbekiston Prezidentining TDT Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqini diqqat bilan kuzatib bordi.

O'zbekiston rahbariyati tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarga savdo-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, logistika, transport, mintaqaviy hamkorlik va o'zaro investitsiyalar sohalaridagi bog'liqlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston rahbari o'z nutqida shu kunlarda Turkiy investitsiya jamg'armasi ish boshlaganini ta'kidladi. Bu TDTda ishtirok etuvchi mamlakatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.


O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p yillardan buyon yuk tashishni rivojlantirib kelayotgan tadbirkor sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan savdo to'siqlarini bartaraf etish, eksport-import hajmini ko'paytirish bo'yicha yangi mexanizmlarni keng joriy qilish, elektron savdo platformalarini rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ehsitib, juda xursand bo'ldim.

O'zbekiston Prezidentining global ta'minot zanjirlari va transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, TDT davlatlari orqali Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga o'tuvchi yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish bo'yicha tashabbuslari ham alohida e'tiborga loyiqdir.

Pokiston va O'zbekiston bu boradagi ishlarni boshlab yuborgan. Transaf'jon temir yo'lini barpo etish uchun Loyiha ofisi tashkil etildi.

Bundan tashqari, transport xizmatlarini raqamlashtirish tashabbusi XXI asrda iqtisodiyotlarni yanada yaqqillashtirish, tajriba, texnologiyalar va bilim almashish uchun asos bo'ladi.

2022-yilda Pokiston global iqlim o'zgarishining haloklati oqibatlariga guvoh bo'ldi va suv toshqinlaridan qattiq jabrlandi. Shu bois, jahon hamjamiyatining diqqatini bu masalaga doimiy qaratib kelayotgan O'zbekiston Prezidentidan minnatdormiz.



XALQARO HAMKORLIK

TERAN ILDIZLARDAN KUCH
OLGAN DO'STLIK

ilm-ma'rifatga tayanib mustahkamlanadi

Mintaqasida nufuzli, yetakchi va muhim ahamiyatga ega davlatlar sanalgan O'zbekiston va Fransiya uzoq o'tmishdan buyon dunyo davlatchiligi, ilm-fani, madaniyati shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib keladi. Ikki mamlakat taraqqiyotida o'xshash va mushtarak jihatlar juda ko'pligi, umumiy xususiyatlarga egaligi bois ham bir necha ming kilometr masofa ajratib turgan davlatlarning savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Mironshoh nasroniy shoh va shahzodalarga yo'llagan maktubida buni alohida ta'kidlaydi: "...agar e'tiqodimizda farq bo'lsa ham, baribir, barchaning, ayniqsa, savdogarlarining manfaatlarini yo'lida do'stlikni avaylashimiz darkor". Bu fikrlar musulmon mamlakatlar hukmdorlari tomonidan milliy-madaniy bag'rikenglik sari tashlangan dastlabki qadamlar edi.

XV asrda Amir Temur Yevropa mamlakatlarning mustaqil davlat sifatida saqlanib qolishi va taraqqiy etishiga yordam bergan bo'lsa, XX asrda fransuz sharqshunoslari sobiq ittifoq zulumidan ozor chekayotgan, o'zligini va tarixini yo'qotib borayotgan o'zbek xalqini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladilar. Ulug' bobolarimiz, xususan, Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rini dunyo hamjamiyatiga eslatib turdi. Demak, O'zbekiston va Fransiya xalqlarining o'zaro do'stona munosabatlari uzoq o'tmishga ega.

Buyuk ipak yo'lini rivojlantirish orqali turli xalqlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirishda Amir Temur tarixiga alohida to'xtalish lozim. Fransiyaalik tadqiqotchi Lyusyen Keren e'tiroficha, "Temurning maqsadi ipak yo'li atalmish savdo yo'lini butun Ovrupoga cho'zishdan iborat bo'lgan. O'z zafarlari bilan Temur shu yo'llarning tashkilotchisi va sohibi bo'lgan".

Sohibqiron Amir Temur Fransiya hukmdori Karl VI bilan yozishmalar olib bergan, o'zaro elchi almashgan. Ayni paytda davom etayotgan aloqalar Amir Temur zamonida ham kun tartibida turgan. Sohobqironning Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida bunday so'zlar bor: "...siz savdogarlaringizni biz tomonlarga yuborsangiz, toki biz ularni qizg'in, bar-

cha izzatlarini o'rniqa qo'yib kutib olaylik. Bizning savdogarlarimiz siz tomonga bor-

to'g'risida ochiq haqiqatni aytish g'oyat qiyin bo'lgan bir pallada, ya'ni 1987-yil 22-martda Parijda temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish uchun o'zbek-fransuz madaniy hamkorligi uyushmasi tuzilgan. Ikki davlat aloqalarini rivojlantirish imkoniyati to'g'risida so'z borar ekan, mazkur aloqalarni rivojlantirish global ahamiyatga ega muammolarni hal etishga xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

So'nggi besh yil O'zbekiston — Fransiya munosabatlari tarixidagi eng yorqin

forumi o'tkazilishini ma'qulladi. Fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olingi. Kuni kecha Fransiya Prezidentining yurtimizga tashrifi ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlarga yangicha sur'at va mazmun baxsh etdi.

O'zbekistonda fransuz tilini yangicha o'qitish metodikasi, fransuz tili o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish ishlari muayyan tizimga solinmagan hamda bu borada ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan yetarlicha foydalanilmayotgani asosiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu muammoni yechish maqsadida mamlakatimiz bo'yicha fransuz tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga katta e'tibor berilmoqda.

Yurtimizdagi 700 dan ortiq umumta'lim maktabida qariyb 152 ming o'quvchi fransuz tilini o'rganmoqda. Shuningdek, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti kunduzgi va kechki bo'limlarida mingga yaqin talaba fransuz tilini 1- va 2-chet til sifatida katta qiziqish bilan o'zlashtirmoqda. Bunga fransuzchani o'rganishga qiziqish va ishtiyoq yildan-yilga oshib borayotgani sabab bo'lmoqda. Shu bois, fransuz tilini har tomonlama chuqur o'rganish maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlik kuchaytirilmoqda. Bunga misol qilib O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida hamda Versal akademiyasi Serji-Pontuaz universiteti o'rtasida aloqalar yo'lga qo'yilganini aytish mumkin.

Serji-Pontuaz universiteti Parij okrugiga kiruvchi nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan bo'lib, ko'plab bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash oliy maktabi Serji-Pontuaz universitetining tarkibiy qismi, boshlang'ich va o'rta ta'lim muassasalari uchun pedagoglar tayyorlaydi. Fransiyadagi Versal akademiyasining Ta'lim va o'qituvchilik oliy maktabi (ESPE) va O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'rtasida ERASMUS+ dasturi asosida 2015-2017 va 2020-2023-yillarga mo'ljallangan loyihalar amalga oshirildi.

Loyiha guruhi vakillari Versal akademiyasi pedagog xodimlari hamkorligida ERASMUS+ dasturi doirasida fransuz tilidagi darsliklarning yangi avlodini yaratish, O'zbekistonda fransuz tilidagi mavjud darsliklarni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, CEFR talablari bo'yicha zamonaviy pedagogik resurslar yaratish, shuningdek, chet tili o'qitishning yangi metodikalaridan foydalanish bo'yicha malaka oshirdi.

Mazkur hamkorlik tufayli universitetning 20 nafar professor-o'qituvchisi Fransiyada qisqa muddat malaka oshirib qaytgan bo'lsa, 15 nafar bakalavr va magistr Fransiya universitetida bir semestr tahsil olib qaytish imkoniyatiga ega bo'ldi. Akademik mobillik doirasida o'qib qaytgan 3 magistrantimiz hozir talabalariga saboq bermoqda.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ERASMUS+ dasturi asosida fransuz tili o'qituvchilari malakasini oshirishga mo'ljallangan maxsus dastur yaratish, ta'lim jarayonini loyiha doirasida ishlab chiqiladigan elektron va multimedial resurslar bilan ta'minlash kabilor ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, Fransiyada chet tili o'qituvchilarini tayyorlash borasida to'plangan tajribani, jumladan, ta'limni tashkil etishga oid turli yondashuvlar, ta'lim tizimi va mazmunlarni takomillashtirish, o'qitishda uzluksizlikni ta'minlash, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish masalalari loyiha guruhi tomonidan amaliy o'rganib kelinmoqda.

Ikki mamlakat universitetlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Versal akademiyasining Serji-Pontuaz universiteti o'rtasida 2024-2026-yillarga mo'ljallangan harakatlar dasturi imzolandi. OTMning 2020-yildan buyon Serji-Pontuaz universiteti bilan hamkorlikdagi loyihalarga Samarqand davlat chet tillar instituti ham jalb etilgan.

Kelajakda O'zbekistonda fransuz tilini o'qitishning yangi metodikasini rivojlantirish, chet tili o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish loyihalarini yo'lga qo'yilishi O'zbekiston mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.



Abdurahim NOSIROV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti prorektori, filologiya fanlari doktori, professor

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Yevropada joylashgan hamda jahonning ilg'or davlati hisoblangan Fransiya bilan xalqaro aloqalar o'rnatish taraqqiyotining demokratik yo'lini tanlagan mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki davlat munosabatlari boy tarixga ega. Xususan, ushbu munosabatlarning ibtidosi hisoblanmish Amir Temur va Fransiya qirollari o'rtasidagi yozishmalarda savdo-sotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirish, shu orqali xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlikni mustahkamlash mumkinligiga e'tibor qaratiladi.

Amir Temur "Temur tuzuklari"da turli xalqlarning ahvolidan, "...har yerning tabiati, har el va shaharning rasmi odatlari, mijozidan" voqif bo'lib turish lozimligini ta'kidlaydi. Sohobqironning o'zi esa turli xalqlarning turish-turmushidan xabardor bo'lish maqsadida savdo karvonlari tashkil etadi va chet mamlakatlarga yuboradi.

Amir Temurning madaniy taraqqiyot yo'lidagi buyuk xizmatlaridan yana biri shuki, mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglagan holda boshqa dinga e'tiqod qiluvchi davlatlar xalqlari bilan ham keng hamkorlikka intiladi. Har bir ishda otasi bilan kengashib ish tutgan shahzoda



salar va ularga ham shunday izzat-ikromlar ko'rsatsangiz. Mayli, ular hech qanday xavf-xatarsiz, to'siqsiz yo'l yursinlar. Dunyoni savdogarlar farovon qiladilar, degan naqni inkor qilish befoya"

Amir Temur maktublarini o'qir ekaniz, ularning naqdar amaliyoti va hayot bilan hamnafasligini his etasiz. Bu maktublardan hamfikrlik va sa'y-harakatlarning natijalari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Fransiyaalik sharqshunolar diyormizdan yetishib chiqqan buyuk shaxslar to'g'risida ko'plab asarlar bitgan. Hali sho'rolar davlati barqaror, Amir Temur

davrlardan bo'ldi. Ikki tomonlama aloqalarning barcha jabhasida samarali hamkorlikni rivojlantirishda, albatta, ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar, muntazam muloqot asosiy o'rinni tutadi.

O'zbekiston Prezidenti Fransiya rahbari Emmanuel Makronning taklifiga binoan 2022-yil 21-22-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tomonlar Samarqandda Fransiya alyansining bo'linmasi ochilishini qo'llab-quvvatlab, 27-28-noyabr kunlari Parijda O'zbekiston — Fransiya ikkinchi ta'lim

NUQTAYI NAZAR

O'ZBEKISTON VA FRANSIYA MUNOSABATLARIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA



Odinaxon OTAXONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

So'nggi yillarda O'zbekiston — Fransiya munosabatlarida faol, ochiq va ishonchli muloqot kuzatildi. Fransiya O'zbekistonning iqtisodiy, sarmoyaviy va moliya-texnikaviy sohalardagi muhim hamkoridir. Mamlakatlarimiz o'rtasida turli yo'nalishlarda aloqalar faollashmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda Fransiya kapitali ishtirokidagi 47 korxonalar, jumladan, 100 foiz Fransiya sarmoyasi asosidagi 17 korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Kompaniyalarimiz mamlakatimizdagi faoliyati geologiya-qidiruv, energetika, qurilish materiallari ishlab chiqarish

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Bugungi kunda ham o'zaro manfaatdorlik va hurmatga asoslangan do'stona munosabatlar jadal rivojlanmoqda. Keyingi olti-yetti yil O'zbekiston — Fransiya munosabatlari tarixidagi eng yorqin davrlardan bo'ldi.

avtomobilsozlik va turizm sohaslaridagi hamkorlikning muvaffaqiyatli namunalari hisoblanadi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya O'zbekiston — Fransiya munosabatlarining bu boradagi barcha jihatlarini ko'rib chiqish uchun muhim platforma bo'lib xizmat qilmoqda. Uning faoliyati ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada diversifikatsiya qilish va chuqurlashtirishning yangi yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Joriy yil aprel oyida Toshkentda Fransiya Tadbirkorlar harakati — "MEDEF International" bilan o'zaro hamkorlikda tashkil qilingan va 35 dan ortiq Fransiya kompaniyalari vakillari ishtirok etgan biznes-forum do'st mamlakat ishbirolanlarining hamkorlikni kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Ikki tomonlama hamkorlik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, bog'dorchilik hamda urug'chilik, o'simliklar karantini, mahsulotlar xavfsizligi va saqlanishini ta'minlash sohaslarida qo'shma ilmiy izlanishlarni amalga oshirish kabi yo'nalishlarda ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda.

O'tgan davrda mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalarning faollashuvi-

da parlamentlararo hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston va Fransiya parlamentlari vakillari o'zaro teng manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga katta e'tibor qaratyapti. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida "O'zbekiston — Fransiya" do'stlik guruhlarini faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki davlat parlamentlari a'zolari o'zaro tashriflar almashuvi doirasida parlamentlararo muloqotni chuqurlashtirish istiqbollari muntazam muhokama qilib keladi.

Parlamentlararo muloqot mamlakatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, savdo-iqtisodiy, sayohat va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Istiqbolli kelishuvlar uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

O'zbekiston — Fransiya munosabatlaridagi mushtaraklikni mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonchning tobora ortib borayotganida ham ko'rish mumkin. Davlatlarimizning ko'pgina muhim ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish borasidagi pozitsiyasi ham bir-biriga yaqin.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Fransiya Respublikasi

Prezidenti Emmanuel Makronning rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgani ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Samarqand shahridagi uchrashuvlar chog'ida madaniy-gumanitar hamkorlik rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. O'zbekistonda fransuz tilini o'rganishga qiziqish ortib borayotgani, shu munosabat bilan tomonlar Fransiya

gan oqilona siyosat natijasida oxirgi yillarda o'zbek-fransuz munosabatlarida hamkorlikning ko'plab sohaslarida ijobiy tendensiyalar ko'zga tashlanmoqda.

Fransiya tajribasi va salohiyatini o'rganish mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishda ustuvor loyihalarni kengaytirish, ta'lim tizimi sifatini yuksaltirish, iqtisodiyotni sanoat va texnologik jihatdan modernizatsiyalash hamda uni tarkibiy

“ PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TAKLIFIGA BINOAN FRANSIYA RESPUBLIKASI PREZIDENTI EMMANUEL MAKRONNING RASMIY TASHRIF BILAN MAMLAKATIMIZGA KELGANI IKKI DAVLAT O'RTASIDAGI HAMKORLIK SOHASIDA TUB BURILISH YASADI, DESAK MUBOLAG'A BO'LMAYDI. SAMARQAND SHAHRIDAGI UCHRASHUVLAR CHOG'IDA MADANIY-GUMANITAR SOHASIDAGI HAMKORLIK RIVOJLANIB BORAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN TA'KIDLANDI. O'ZBEKISTONDA FRANSUZ TILINI O'RGANISHGA QIZIQISH ORTIB BORAYOTGANI, SHU MUNOSABAT BILAN TOMONLAR FRANSIYA ALYANSINING SAMARQANDDAGI FILIALI OCHILISHINI OLQISHLADI.

alyansining Samarqanddagi filiali ochilishini olqishladi.

Umuman, bugungi kunda tomonlar hamkorlikning barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, munosabatlarini keng qamrovli sheriklikning yangi bosqichiga olib chiqishga qat'iy intilmoqda. Uzoqni ko'zlab amalga oshirilayot-

jihatdan diversifikatsiyalashga yaqindan ko'mak beradi.

Xalqaro maydonda tobora yuksak siyosiy mavqega ega bo'lib borayotgan O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalarni yanada mustahkamlash Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, tovar ajratib oshirish va

qo'shma korxonalar soni bir necha barobar ko'paydi. Joriy va istiqbolli loyihalar portfelini 10 milliard yevrodan oshirdi. Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 1 milliard yevrolik Strategik hamkorlik dasturi amalga oshirilmogda.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida qabul qilingan Qo'shma bayonot ikki davlat munosabatlarini strategik sheriklik darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. Prezidentlar huzurida moliya, ta'lim, madaniyat va ikki tomonlama hamkorlikning boshqa yo'nalishlari bo'yicha imzolangan 8 ta hujjat ham ushbu tashrifning muhim jihatlardan biri bo'ldi, desak ayni haqiqat.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning yurtimizga tashrifi hamda uning doirasida erishilgan natijalar, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar yangi bosqichda yanada yuqori darajaga ko'tarilishiga, faol madaniy-gumanitar hamkorlik rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu tashrif ko'p asrik O'zbekiston — Fransiya munosabatlarida muhim voqea bo'lib, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirish, uni yuqori bosqichga ko'tarishda yangi sahifa ochadi. Eng muhimi, o'zaro aloqalarimiz yanada kengayishiga va ikki davlat xalqlarini bir-biriga tobora yaqinlashtirishga xizmat qilish bilan birga, kelgusida hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

JARAYON

BANKLARNI
SANATSIYA QILISHIlgari surilayotgan qonun loyihalari
qanday samara beradi?

Iqtisodiyot bir joyda to'xtab turishi mumkin emas. Binobarin, uning rivoji mamlakat taraqqiyoti va aholi turmushida o'z aksini topadi. Rivojlanish esa huquqiy asoslarga tayanadi. Keyingi yillarda iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lgan bank tizimini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarishlar ayni shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Jumladan, shu kunlarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ikkita yangi hujjat — "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi hamda "Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonun loyihalari ilgari surilmoqda.

O'zbekiston moliya-bank sohasida yangilik sifatida kirib kelayotgan birinchi qonun loyihasi regulation.gov.uz saytida jamoatchilik muhokamasidan o'tgan bo'lsa, ikkinchisi muhokamaga qo'yilish arafasida.

— Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, qolaversa, dunyo bank-moliya tizimidagi o'zgarishlar mazkur yo'nalishdagi qonunchilikni ham ularga moslashtirishni talab etadi, bu bozor qoidasi, — deydi Markaziy bankning Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish metodologiyasi departamenti direktori Sanjar Nosirov. — "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunlarning yangi tahrirda qabul qilinishining boisi shunda. Taklif etilayotgan qonun loyihalari esa ana shu qonunlarning mantiqiy davomidir. Ya'ni bu orqali mamlakatimiz bank tizimi barqarorligi jahon tajribasi asosida yanada mustahkamlanadi.

Aytilik, hozir biror-bir bank to'lov

e'tiborga olingan. Faoliyati tugatilishidan oldin uni sog'lomlashtirish imkoniyatlari o'rganib chiqiladi. Shundan so'nggina yakuniy xulosaga kelinadi.

Lo'nda qilib aytganda, bankni sanatsiya qilish to'lovga qobiliyatsiz bankni boshqarishning samarali usuli sifatida baholanmoqda. Umuman, bankni sanatsiya qilish ham iqtisodiyot, ham mijozlar uchun bir qator qulayliklar yaratadi. Xususan, bu orqali tizimli moliyaviy inqiroz



qanchalik zarur, o'zi u biz uchun kerakmi, degan savol bo'lishi mumkin. Bunga javob shuki, hozirgi kunda O'zbekistonda yirik va o'rta banklarning salohiyatli to'lovga qobiliyatsizligini bartaraf etish uchun zarur instrumentlar mavjud emas. Ya'ni xususiy banklar faqatgina tugatiladi. Davlat ishtirokidagi banklar esa hukumat tomonidan qayta kapitalashtiriladi.

Qolaversa, bank inqirozi (alohida banklar kesimida yoki tizimli ravishda) istalgan vaqtda yuz berishi mumkin va bunga tayyor bo'lish muhim. Shu bois, mazkur qonun loyihasini ishlab chiqish vazifasi Prezidentimizning 2020-yil 12-maydagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025-yilgacha mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida belgilangan edi.

mablag'ini ko'paytirish maqsadida omonat qo'yadi. Ya'ni ishimiz, hayotimiz banklar bilan bog'liq. Shu jihatdan olganda, yangi tahrirdagi "Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ham dolzarb ahamiyatga ega.

— Ushbu qonun loyihasi bilan, avvalo, bizning vazifalarimiz yanada aniqlashtirilyapti, ya'ni Fuqarolarning banklardagi omonatlarni kafolatlash fondining tashkiliy tuzilmasi va vakolatlari belgilab olinyapti, — deydi mazkur fond direktori Nodir Abbosov. — Shuningdek, kafolatlanadigan omonatlar qamrovi va miqdori oydinlashtiriladi. Banklarni sanatsiyalashda fond mablag'laridan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Omonatlar to'lab berilishi munosabati bilan omonatchilarning bankdan ustuvor ravishda talab qilish huquqi fondga o'tkaziladi.

Fondga to'lab berilishi lozim bo'lgan mablag'lardan to'langan badallarni chegirish amaliyotini bekor qilish taklif etilmoqda.

Har ikkala qonun loyihasini ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, olimlar fikrlari batafsil o'rganib chiqildi.

Qonun loyihasida, shuningdek, to'liq kafolatlashdan cheklangan kafolatlashga o'tish belgilangan. Bu nima degani? Hozirgi kunda faqat 3 ta mamlakat — O'zbekiston, Belarus va Turkmanistonda omonatlar to'liq kafolatlanadi, xolos. Yurtimizda 2009-yilda global iqtisodiy inqiroz tufayli shunday tizimga o'tilgan edi. Bu esa banklar tomonidan nomaqbul (yuqori tavakkalchilik) operatsiyalarni amalga oshirishga sharoit yaratadi. Natijada soliq to'lovchilarning mablag'larini xavf ostida qoladi. Qolaversa, bu xalqaro standartlarga ham zid.

Cheklangan kafolatlash tizimiga o'tish omillari sifatida esa banklarda chakana omonatlar ulushining kamligi, omonatlarni kafolatlash tizimi haqida aholining xabar-dorlik darajasi pastligi, aksariyat omonatlar muddatli, 1 yilgacha ekanligi hamda qonun loyihasining sanatsiya islohotiga uyg'unligi ko'rsatilmoqda.

Eng asosiy jihatlardan yana biri, mabud bank sanatsiyaga tushsa yoki tugatilsa, omonatchilar pullari yetti ish kunida qoplab beriladi. Vaholanki, ayni paytda mazkur jarayon uchun o'yagacha cho'zilib ketadi. Har ikkala qonun loyihasida bunday yangiliklar bir qancha. Muhimi, Markaziy bank taqdim etayotgan qonun loyihalari banklar faoliyati va mijozlar manfaatini ta'minlash barobarida, iqtisodiyot barqarorligiga xizmat qilishi aytilyapti.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YANGI O'ZBEKISTON



YASHIL MAKON

BIRNI KESSANG,
o'nni ek

Daraxt ekkanga uning savobi tegib turadi, deyishadi. Zero, xalqimizda "Birni kessang, o'nni ek" degan maqol bejizga aytilmagan. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol qadallishi zamirida ham egzulikka yo'g'rilgan an'anani, ya'ni avlod va ajdodlarimiz munosabatidagi uzviylik daraxt ekish orqali amalga oshirilganini ko'rish mumkin. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili O'zbekistonda 200 million tup atrofdagi daraxt va buta ko'chatlari ekish maqsad qilingan.

— So'nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda mazkur umummilliy loyiha keng quloch yoydi. Buning natijasida viloyat, shahar, tuman, mahalla va qishloqlarimizda ko'kalamzorlashtirish, ona tabiatni asrash, atrof-muhit sofligini saqlash, mevali va manzarali daraxtlarni ko'paytirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda, — deydi Buxoro viloyat davlat o'rmon xo'jaligi boshlig'i Rustam Hojiyev. — "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida viloyatda 2022-yilning kuz va joriy yil bahor mavsumida jami 16 million 350 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlari ekildi. Ushbu mavsumda viloyatimiz miqyosida salkam 7 million tup ko'chat ekilishi belgilandi va bu borada "Manzillik dastur" ishlab chiqildi. Buning uchun ko'chat yetishtirishga ixtisoslashtirilgan 3 ta xo'jalik tomonidan 7,7 million tup, ya'ni 27 turdagi daraxt va ko'chat zaxirasi yaratilgan. Birgina G'ijduvon tumani davlat o'rmon xo'jaligi faoliyati misolida aytadigan bo'lsak, ko'kalamzorlashtirishda nisbatan talab ortib borayotgan sadaqayrag'och niholidan 150 ming tup, qayrag'ochdan 100 ming tup zaxira tayyorlangan. Hozirda hududdagi 14 ta o'rmon xo'jaligining barchasida 100 gektarga teng ko'chatxona mavjud bo'lib, 20 gektarida qayrag'och ekilgan. Bugunga kelib avtoyo'l, ko'kalamzorlashtirish, dehqon va fermer xo'jaliklari uchun ikki yarim million tup atrofdagi nihol zaxirasi tayyorlab qo'yildi. Qayrag'och serbarq bo'lib, mahalliy iqlim sharoitida yaxshi o'sadi. Sho'rlanishga va suvsizlikka chidamli.

Davlat o'rmon xo'jaliklarida 6,5 million tup, ko'chatliklarga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklari va tajriba xo'jaliklarida bir million tup, "Buxoroyo'lko'kalam" korxonasi tomonidan esa 200 ming tup ko'chat tayyorlanmoqda. Ekilgan ko'chatlarni sug'orish uchun 17 kilometrga teng sug'orish tizimi tashkil qilinib, 9 ta suv chiqarish qudug'i foydalanishga topshirildi. Joriy yilda o'tqazilishi

ko'zda tutilgan 13 gektar yer maydonidagi ko'chatlar uchun 9 kilometr masofadagi sug'orish tizimi tashkil qilinib, oltita suv chiqarish qudug'i tayyorlandi.

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, ko'hna Buxoro shahridagi janub tomonidagi 43 gektar yer maydonida "Yangi O'zbekiston" bog'i barpo qilyapti. Mazkur hududda ayni kunlarda yer maydonini tayyorlash ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Shahardagi 11,25 gektar maydonida ham "Yashil bog" tashkil etilmoqda.

Joriy yil 11-oktabr kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida Qorako'l tumanidagi ixtisoslashtirilgan davlat o'rmon xo'jaligi tajribasini keng ommalashtirish yuzasidan ham taklif va mulohazalar bildirildi.

— Bugungi kunda o'rmon xo'jaligimizning 12 gektarida n'matak planatsiyasi yaratilgan. Bu yerdagi ikki yillik ko'chatlar 10 ming tupni tashkil qiladi. Azaldan guli, mevasi, urug'i, bargi va ildizi xalq tabobatida keng qo'llaniladigan mazkur buta mahalliy sharoitga mos bo'lib, ko'kalamzorlashtirishda ham keng foydalansa bo'ladi, — deydi Qorako'l ixtisoslashtirilgan davlat o'rmon xo'jaligi boshlig'i Bobonazar Begandikov. — Asosan, novda qalamchasi va urug'idan ko'paytirilayotgan n'matak tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan darmondorlar mavjud. Xususan, uning mevasida kaliy, temir, marganes, fosfor, kalsiy, magniy bor. Ayniqsa, sovuq mizojli va qon bosimi past bo'lgan bemorlarga n'matak damlamas tavsiya qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyatida ekologik barqarorlikni ta'minlash, 200 ming gektar maydonida "yashil qoplama" barpo etish chora-tadbirlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugunga kelib, viloyatda jami 40 ming gektar, shundan Romitan tumanidan 4,5 ming gektar, Jondor tumani cho'l hududida 35,5 ming gektar "yashil qoplama" — o'rmonzorlar barpo etilmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“SANATSIYA QILISH JARAYONIDA BANKNING BARCHA YOKI TANLANGAN AKTIV VA MAJBURIYATLARI UCHINCHI SHAXSGA O'TKAZILADI. BUNING UCHUN USHBU MOLIIYA MUASSASASI AKSIYADORLARI YOKI KREDITORLARINING RUXSATI TALAB ETILMAYDI. SANATSIYA QILINAYOTGAN BANKNING UZLUKSIZ FAOLIYATINI TA'MINLASH UCHUN ORALIQ BANK TASHKIL ETILADI VA CHEKLANGAN MUDDATGA FAOLIYAT YURITIB TURADI. YO'QOTISHLAR, BIRINCHI NAVBATDA, AKSIYADORLAR TOMONIDAN QOPLANADI.

qobiliyatini yo'qotsa yoki uning faoliyatida jiddiy kamchiliklar aniqlansa, litsenziyasi bekor qilinadi. Ya'ni faoliyati to'xtatiladi. "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi qonun loyihasida bunday hollarda, avvalo, o'sha moliya muassasasining holati chuqur tahlil qilinishi qat'iy

vujudga kelishining oldi olinib, salbiy oqibatlar kamayadi. Omonatchilarning huquq va manfaatlari himoya qilinadi. Muayyan bankni sanatsiya qilish uchun davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar maksimal darajada qisqartiriladi.

Shu o'rinda sanatsiya qilish tizimi

Sanatsiya qilish jarayonida bankning barcha yoki tanlangan aktiv va majburiyatlari uchinchi shaxsiga o'tkaziladi. Buning uchun ushbu moliya muassasasi aksiyadorlari yoki kreditorlarining ruxsati talab etilmaydi. Sanatsiya qilayotgan bankning uzluksiz faoliyatini ta'minlash uchun oraliq bank tashkil etiladi va cheklangan muddatga faoliyat yuritib turadi. Yo'qotishlar, birinchi navbatda, aksiyadorlar tomonidan qoplanadi.

Albatta, sanatsiya qilish tizimi islohoti birdaniga bo'lib qoladigan jarayon emas. U bir necha yil davom etadi va qonunchilik bazasini mustahkamlash bilan cheklanmaydi.

Bugun barchamiz banklar bilan turli munosabatda bo'lamiz. Kimdir kredit masalasida, kimdir pul o'tkazish, yana kimdir

FORUM

DUNYO YO'LLARI CHORRAHASIDA

Toshkentda yakuniga yetgan SHHT Birinchi transport forumi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti transport vazirlarining 12-yig'ilishi, aviatsiya va logistika anjumani buni yana bir karra tasdiqladi.

Toshkentda shu hafta SHHT Birinchi transport forumi bo'lib o'tdi. Unda tuzilmaning transport logistikasi salohiyatini yanada rivojlantirish uchun yangi muqobil transport yo'laklarini hamkorlikda yo'lga qo'yish, moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash, chegara nazorat o'tkazish punktlarida ish tartibini 24/7 formatda tashkillashtirish hamda xalqaro avtomobilda yuk tashuvchi haydovchilarga viza berish jarayonini soddalashtirish, raqamli texnologiyalar joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Tahillarga ko'ra, Yevrosiyo hududida uchta asosiy yo'lak mavjud. Uning shimoliy va janubiy yo'nalishlari keyingi yillarda mintaqada ro'y berayotgan turli ziddiyatlar tufayli jiddiy muammolarga duch keldi. Markaziy Osiyo yo'lakiga hozirgi kunda eng maqbul, xavfsiz yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu bois, XXR bu loyihani amalga oshirishga katta e'tibor qaratib, uni istiqbolli va manfaatli, deb hisoblaydi. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi asosida yuzaga kelayotgan yangi yo'l juda ko'p muammolarni hal etishda asqatadi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, Xitoy mintaqamiz bilan bog'laydigan, Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikaga olib chiqadigan xavfsiz va eng qisqa transport yo'laklarini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda Transevroosiyo magistrali loyihasi ustuvor yo'nalish, Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston avtomobil va temir yo'llari esa uning muhim tarkibiy qismi bo'ladi.

Yurtimiz tarixida ilk bor o'zbekistonlik quruvchilar xorijiy davlat, ya'ni Afg'onis-

tonda Hayraton va Mozori Sharif o'rtasida temir yo'l barpo etdi. Ayni keza, undan unumli foydalanib kelinmoqda. U mintaqada mamlakatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan muhim loyiha — Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo'li qurilishida ham muhim o'rin tutadi.

— Bu kabi loyihalar natijasida Markaziy Osiyo davlatlari Sharq va G'arb, Shimol va Janub davlatlari o'rtasida yirik logistika xabiga hamda Buyuk ipak yo'lining tarixiy "yuraqi"ga aylanadi, — dedi O'zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov. — Mintaqada davlatlari eng qisqa va arzon yo'nalish orqali dunyo okeanlariga chiqadi, davlatlarimizning tranzit salohiyati bir necha karra ko'payadi, o'n minglab yangi ish o'rni yaratiladi. Transaf'gon temir yo'li qurilishi ham, "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'lining barpo etilishi ham 2024-yilda boshlanishi rejalashtirilgan.

SHHT Bosh kotibi o'rinsbosari Soyxal Xonning fikricha, O'zbekiston Prezidenti taklifi bilan o'tkazilayotgan mazkur anjuman tashkilotning transport rishtalarini mustahkamlash, uqlari tobora kengayib borishda muhim o'rin tutadi. Unga Eronning qo'shinishi, Belarusning a'zo bo'lishi kutilayotgan tuzilmaning transport-kommunikatsiya ma-konidagi rivojida yangi imkoniyatlar yaratadi. SHHTga a'zo davlatlarning yarmi tranzit mamlakatlar hisoblanasa, ularning muayyan qismi dengiz yo'llariga tutash emas. Bu, o'z navbatida, tashkilotga a'zo davlatlar tranzit siyosatini hamkorlikda yuritishini, shuningdek, yagona yuklar monitoringini amalga oshirishni taqozo etadi.

Mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan chegaradosh O'zbekiston nainki qo'shni, balki Sharqiy Osiyoni Janubiy Osiyo, Yaqin Sharqni Kavkaz va undan keyin Yevropa bilan transport tarmog'i orqali birlashtirish salohiyatiga ega. Qolaversa, O'zbekiston ichki va tashqi transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Iqtisodiy hamkorlikning muhim yo'nalishlari

O'zbekiston 1992-yil 28-noyabr kuni IHTga a'zo bo'lgan. Bugungi kunda uning faoliyatida o'nta davlat — Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston a'zo sifatida ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbari bundan ikki yil oldin IHTning Turkmanistonda bo'lib o'tgan sammitida uning faoliyatiga yuqori baho bergan edi. Chunki ayni kunda tashkilotga a'zo davlatlar aholisi soni yarim milliarddan or-

tiqni, YIM hajmi esa qariyb 2 trillion dollarni tashkil qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning IHT doirasidagi hamkorligi sezilarli darajada faollashdi. O'zbekistonning tashkilotga a'zo mamlakatlar bilan tovar ayirboshlash hajmi 70 foiz o'sdi, qo'shma korxonalar va loyihalar soni esa 5 barobar ko'paydi.

Ekspertlar fikricha, transport-kommunikatsiya sohasida barcha sa'y-harakatlar-ni birlashtirish IHT davlatlarining transport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki unga a'zo davlatlar Yevropa va Osiyo qit'asini bog'lab turuvchi qulay geostategik hududda joylashishiga qaramay, bugungi kunda Osiyo va Yevropa mam-

lakatlari o'rtasidagi savdoning 70 foizi dengiz transporti, 25 foizi havo kemalari, 5 foizi esa quruqlikdagi yo'laklar orqali amalga oshirilmoqda.

2-noyabr kuni Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar transport vazirlarining 12-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda dunyoda yuzaga kelgan muarakab vaziyatda transport va logistika zanjirlari uzilishi va ularning oqibati, muqobil yo'laklarni rivojlantirish, yuk tashuvlariga ruxsat tartib-taomillarini soddalashtirish, sohada amalga oshirilayotgan loyihalar, o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, yuk tashishda boshqarish jarayonlari va ko'rsatiladigan xizmatlarni raqamlashtirish, tranzit imkoniyatidan unumli foydalanish kabi masalalar muhokama qilindi.

O'zbekiston transport vaziri Ilhom Mahkamov SHHT Birinchi transport forumi va Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar transport vazirlarining 12-uchrashuvi yakunlari bo'yicha bunday fikr bildirdi:

— Eng avvalo, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo mamlakatlariga chiqish imkonini beruvchi transport yo'laklari juda muhim rivojlantirish bo'yicha Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston Transport vazirlari rahabariyati tomonidan hujjat imzolandi. Bu hujjat O'zbekiston tranzit salohiyatini oshirish, MDH davlatlarini 1,5 milliard aholiga ega Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'lab, o'zaro savdo hamda mintaqada iqtisodiyotini rivojlantirishga, muqobil transport yo'laklaridan tashilayotgan yuklarni O'zbekiston orqali tranzit tashish uchun jalb qilishga imkon yaratadi.

Asosiy savdo hamkorlarimizdan biri hisoblangan Rossiya bilan eksport va import yuk tashuvlari uzluksizligini ta'minlash hamda transport yo'laklarini diversifikatsiyalash maqsadida Kaspiy dengizi orqali muqobil transport yo'lagini rivojlantirish bo'yicha ham memorandum imzolandi.

IHT transport vazirlarining 12-yig'ilishi yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasida yuk tashuvlari jarayonini yanada soddalashtirish, mamlakatlar tranzit salohiyatini oshirish, muqobil transport yo'laklarini rivojlantirish kabi masalalar qamrab olingan.

Turizm salohiyatini inobatga olgan holda Samarqand aeroportiga IHT davlatlari aviatsiya xabi maqomini berish taklifi ishtirokchilar tomonidan ma'qullandi.

O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagini yanada rivojlantirish bo'yicha ishtirokchi mamlakatlar transport vazirlari darajasida hujjat imzolandi. Anjuman doirasida "Aviation & Logistics Forum 2023" xalqaro forumi va "Trans Logistics Uzbekistan 2023" ko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi.

Abdurauq QORJOVOV,
iqtisodiy shahrohchi





HAR MANZILNING O'Z XOSIYATI BOR

Bashorat YUNUSOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

yoxud Sirdaryo zamini tafti hayotga yangi epkinlarni olib kirmoqda

Yurtimizda mavsumlar go'zal. Yilning har pallasidan ko'ngliga huzur, taskin, zavq topa oladi kishi. Mashina oynasini savalayotgan kuz yomg'iri faslning tobora oyoqlab borayotganidan darak beradi. Sariq, yashil, qizg'ish rang yopingan daraxtlar dilga sokinlik bag'ishlaydi. Ona tabiat eng mohir rassomligiga tan berasiz. Yo'l yoqasida qatorasiga savat-savat laylaklar uyasi — tinchlik timsoli. Afsonalarga ko'ra, laylaklar tinchlik hukmron joylarda in qurarmish. Chindan yurtimiz tinch, shuning uchun ham bir manzildan boshqasiga bemalol emin-erkin sayohatga otlanamiz. Dunyoning ayrim hududlaridagi alg'ov-dalg'ovlar, to's-to'polonlar bir-bir ko'z oldimizdan o'tadi. Eng totli ne'mat tinchlik ekanini anglab, shu kunlar uchun shukrona qilamiz... Erta tongdan Sirdaryo viloyati sari yo'lga tushdik. Maqsadimiz — viloyatning turizm salohiyati bilan yaqindan tanishish.



OILAVIY MEHMON UYLARI QULAY, HAMYONBOP

Turizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mintaqalarning sayyohlik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko'rsatish sohasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish hamda aholi bandligi va farovonligini ta'minlash maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Oilaviy mehmon uylarining tashkil etilishi ana shu imkoniyatlar samarasidir. "Shohinur" oilaviy mehmon uyi Guliston tumanida joylashgan. Viloyat markazidan uncha olib bo'lmagan mazkur manzil viloyatga tashrif buyuruvchi mehmonlarga arzon va qulayligi bilan manzur bo'lyapti.

Oilaviy mehmon uyi uchun litsenziya olgach, ishlarni boshlab yubordik. 13 ta xonamiz bor. Bir, ikki, to'rt kishilik xonalardan iborat bu joyda barcha sharoitlarni yaratishga harakat qildik, — deydi mehmon uyi rahbari E'tibor Abdurahmonova. — Turmush o'rtog'im nafaqaga chiqqach, bu faoliyatga jiddiy kirishdi. Menga va farzandlarimga juda ma'qul keldi. Zamonaviy



dizaynga alohida e'tibor qaratdik, jihozlar, televizor, Wi-Fi zona, issiq va sovuq suv, xonalardagi mo'tadil harorat — hech biri nazarimizdan chetda qolmadi. Viloyat markaziga yaqinligi, bahavoligi mehmonlarga ham ma'qul. Sayyohlarni milliy taomlarimiz bilan siylaymiz, shirin

so'zimizni ayamaymiz. Yurtimiz hududlaridan tashqari, qo'shni davlatlar, xususan, Rossiya, AQSH kabi mamlakatlardan ham sayyohlar kelmoqda.

Oilaviy mehmon uyining tashkil etilishi, ayniqsa, oila bekasi uchun o'ziga xos hodisa bo'ldi. Pedagogika yo'nalishida universitet tahsilini olgan, biroq farzandlar tarbiyasi bilan band bo'lib, ishlay olmagani E'tibor opa endi oilaviy mehmon uyiga rahbar. Bundan tashqari, yana sakkiz ish o'rini yaratilgan. Demak, shuncha oilaning ro'zg'origa bu tashabbus qo'shimcha daromad bo'lib kiriyapti.

Yo'l-yo'lakay atrofi kuzatib borarkanmiz, no'anaviy usulda qad rostlayotgan kempinglar e'tiborimizni tortdi. Sirdaryo yoqasidagi bu ajoyib dam olish maskanlari ham hududga tashrif buyuruvchilarga ma'qul kelishi shubhasiz.

Xonadon bekasi Gullola Yusupovaning aytishicha, oilaviy mehmon uyi ochildi uchun hujjat tayyorlanyapti. Kempinglar bitsa, daryo yoqasidagi bu ajoyib uychalar mehmonlarni qabul qilishni boshlaydi. Ayniqsa, yoz faslida so'lim, daryo suvining shabadasida dam olishning gashli bo'lak.

To'rt farzandimiz bor. Qizimiz bu yil O'zbekiston Milliy universitetini bitirdi, hozir ishlayapti. Katta o'g'lim ikki yil institutga hujjat topshirib, kira olmadi, hozir mana shu ishning boshini tutgan. Yana bir o'g'lim Rossiyada ishlab qaytdi. Milliy va xorij taomlarini tayyorlashga usta. Musofirchilikda ham shu hunari orqasidan kun ko'rdi. Biroq chetda yurish oson emas ekan. Ham o'zi qiyaldi, ham biz. Mana, yurtimizda harakat qilgan odamlar yo'lini topyapti, daromad qilyapti. Shu maqsadda oilaviy mehmon uyi ochildiga qaror qildik. Katta bog'imiz bor, u yer ham mehmonlarga ma'qul bo'ladi, nasib qilsa. Meni xursand qiladigani ham uch o'g'lim, ham kelinim, turmush o'rtog'im — hammamiz ishli bo'lamiz, — deydi Gullola opa.

AGROTURIZM: 23 YOSHLI FERMER TUYA BOQISHNI YO'LGA QO'YGAN

Mirzaobod tumani hududidagi katta yo'l yoqasidan o'tib boraversangiz, o'rkach-o'rkach tuyalarni uchratasiz. 50 dan ortiq tuyalar "Mirzacho'l donald dak" MCHJga tegishli. Jamiyat rahbari Behruz Mahkamov bu yil Rossiyada turizm va servis yo'nalishida tahsil olib qaytdi. Otasi boshlagan ishni davom ettirishga astoydil bel bog'ladi.

Tuyalarni boqish uchun 24 gektar yerimiz bor, — deydi B.Mahkamov. — Hayvonlar, asosan, yantoq yeydi. Uni qo'shni hududlardan, cho'llardan ham yig'ib kelamiz, qishga zaxira kerak. 13 bosh sog'in tuyamiz bor. Ularning har biri 3-5 litrgacha sut beradi. Uzoq-yaqindagi yurtdoshlarimiz tuya sutining foydasini eshitib keladi. Tuya sutini qaynatib bo'lmaydi, qaynatsangiz, sifati buziladi. So'raganlardan qizg'anmaymiz, imkoni boricha yetkazib beramiz. Hatto qo'shni davlatlar — Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'izistondan ham mehmonlar keladi.

Tolibjon Rahmonqulov Qirg'izistonning Jalolobod shahridan. Yilda ikki bor Mir-



zacho'l tuyalarining sutidan iste'mol qilish uchun atay keladi. Otaning aytishicha, tuya sutini salomatlik uchun juda foydali.

Bizda ot ko'p, biroq iqlimimiz tuya boqish uchun to'g'ri kelmaydi, — deydi mehmon. — Shuning uchun sayohat bahona kelib, tuya sutidan ichib ketamiz. Har kelganda 20 kun qolamiz. Odamlar bilan gaplashib, bahri dilimiz ochiladi. Bozorlarni aylanamiz, qadamjollarni ziyorat qilamiz. Menga har safar umr yo'ldoshim hamroh bo'ladi.

Behruz Mahkamov katta niyatlar, maqsadlar qilgan. U yurtimiz agroturizm salohiyati o'sishiga o'z hissasini qo'shmoqchi.

VILOYATGA SAYYOHLAR OQIMI KO'PAYGAN

Iqtisodiy tahlilchilar mamlakat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi turizm ekanini ta'kidlaydi. AQSH, Xitoy, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Meksika, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya, Tailand, Shveysariya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarda hayot farovonligi darajasi oshishi sayyohlar ko'pligi, turizm infratuzilmasi rivojlangani bilan bevosita bog'liq.

Bugun Sirdaryo viloyatida turizm infratuzilmasi yaxshilanmoqda. Bunga yurtimizda turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat olib borishi uchun berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar keng yo'l ochmoqda. Zamonaviy mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xostellar qad rostlamoqda. Sayyohlikning biz uchun nisbatan yangi yo'nalishlari — ekoturizm va agroturizm uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududlar infratuzilmasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilayotgani ham bor gap.

Mamlakatimizda turizm sohasiga berilayotgan e'tibor tufayli soha rivojlanib bormoqda, — deydi Sirdaryo viloyat hokimligi turizm kotibiyati mudiri Husniddin Mamatov. — 2019-yilda Guliston shahri-ning Islom Karimov ko'chasida Turizm ko'chasini tashkil etish taklifi berilgan edi. Hozirda ushbu ko'chada umumovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari soni ikki barobar ko'paymoqda. Bu yerga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar soni bundan 5 yil oldin 19 mingni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 47 mingdan oshdi. Yil yakuniga qadar yana 9 mingga yaqin xorijlik sayyoh kelishi kutilmoqda. Viloyatda besh yil ilgari atigi 4 ta mehmonxona mavjud bo'lgan bo'lsa, hozir ularning soni 13 taga yetdi. Yana bir qiziq ma'lumot: 2018-yilgacha xostel va oilaviy mehmon uylari mavjud bo'lmagan. Shu kunlarda mehmonlarga 20 xostel xizmat ko'rsatmoqda. Oilaviy mehmon uylari soni 12 taga yetdi. 2018-yil faqat bitta turoperator faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ayni paytda turoperator va turagentlar soni 19 tani tashkil etmoqda.

Turizm sohasidagi obyektlarda Wi-Fi hududlari tashkil qilinmoqda. Shuningdek, 2023-yilda 10 ta turizm yo'l ko'rsatkich belgilari o'rnatildi.

Yana bir gap: xususiy transport korxonalar tomonidan 30 ga yaqin mikroavtobuslar sotib olindi. Turoperatorlar ham avtobus va mikroavtobuslar sotib olyapti. Jumladan, "Niyat" MCHJ tomonidan "Yutong" avtobusi va JAK mikroavtobuslari, "Sirli Sayxun sohili" MCHJ va Sirdaryo turoperatorlik xizmati tomonidan JAK mikroavtobuslari xarid qilindi. Shuningdek, yana "Yutong" avtobusini xarid qilish uchun hujjatlar tayyorlanmoqda.

ENG SHIRIN QOVUNLAR MIRZACHO'LNIKI

Dunyo bozorida Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab katta. E'tiborlisi, bundan 3-4 yil ilgari qishloq xo'jaligi mahsulotlari 10 dan ortiq davlatga eksport qilingan bo'lsa, bugun kelib, sirdaryolik dehqonlar yetishtirgan qovun-tarvuz va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari 20 dan ortiq davlatga yetkazib berilmoqda. Ular orasida AQSH va Buyuk Britaniya ham bor.



Viloyatning shirasi tilyorlar qovunlariga esa ta'rif shart emas.

Toshkentdan Jizzax, Samarqand, qo'yingki, voha tomon o'tlangan yoki aksincha, Toshkentga yo'l solgan yo'lovchilar, sayyohlarning aksari Mirzaoboddagi qovun yoki anor bozorida xarid uchun, hech yo'q, bir tilim qovun yeyish uchun to'xtab o'tadi. Bu yerda faoliyat olib borayotgan sotuvchilarning qo'li-qo'liga tegaydi.

— Mana bu qovundan oling, pulingiz cho'ntagingizda ketadi!

— Mirzacho'l "qirqma"sidan tatib ko'ring, mazasiga gap yo'q.

— Yeganingizga pul olmaymiz, bir tatib ko'ring.

— Qovoqdan oling, qovoqdan, bahorgacha turaveradi, dehqonni duo qilib yeysiz...

Sotuvchining muomalasida ham gap ko'p ekan-da. Kelgan sayyoh yoki yurtdoshimizni gap bilan shunday eritib tursa, bozorda qovun qoladimi?!

— Bozorhamida mavsumga qarab sara qovun-tarvuz, qovoq navlari sotiladi, — deydi ish yurituvchi Fayzulla Ahmedov. — Qish oldi "qirqma",

"kampirchopon"ning bozori chaqqon, chunki bu qovunlar bahorgacha turib beradi. Qishning qaharitonida ham qovun yeysiz. Mahsulotlar asosan, viloyatimizning Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod tumanlarida yetishtiriladi va xaridorgir.

Munavvar Xo'jaqulova 55 yoshda. Mirzaobod tumanining Mirzacho'l qishlog'ida yashaydi. Uch farzandning onasi. O'n ikki yildan buyon shu bozorchadan topgan daromadi ortidan ro'zg'origa baraka kirib turibdi. Opaning aytishicha, ertalab 9 da ish boshlaydi, qosh qorayguncha savdo qiladi. Hozircha kunlik sof daromad o'rta 150-200 ming so'm. Mavsumga qarab bu narx o'zgarishi mumkin.

— Kunlik ishlaydigan ishchilar ham shunaqa topadi, — deydi M.Xo'jaqulova. — Fevral va mart oylaridan tashqari yilning barcha oyida savdo zo'r. Erta ko'klam arafasida qovunlarimiz yengillab qoladi.

Yo'lovchilar, ayniqsa, sayohatga chiqqan yurtdoshlarimiz, xorijlik sayyohlar qovunlarimizning mazasi juda xushtaligini aytib maqtaaydi, xursand bo'lib ketaman. Ko'pincha mendan qayerning qovunlari eng mazali ekanini so'rashadi, hech ikkilanmay, eng shirin qovunlar Mirzacho'lniki, deyman.

OQCHANGALLIKLAR QOVUN QOQINI MILLIY BRENDGA AYLANTIRMOQCHI

quritish va qirqishning turli usulidan foydalaniladi.

Eti tig'iz bo'lgan "qizilurug'", "oq urug'", "ko'kcha", "gulobi" va boshqa navlari oddiy usulda ilmoqlarda, eti bo'sh, yumshoq etli — "bosvoldi", "toshloqi", "gurvak" kabi navlar so'kchaklarga yoyilib quritiladi. Qovunni ob-havo sharoiti va tilimlar qalinligiga qarab quritish 6-14 kunga boradi.

— Har gektar yerdan o'rta 30 tonna hosil olamiz, — deydi dehqon Rustam Yuvashev. — Bir qismini bozorga sotamiz, bir qismini quritib, qoqi qilamiz. Kelinla-

rimizdan tortib, nevaralarimizgacha shu ish bilan mashg'ul. Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'ning yordamiga ham tayanamiz, albatta. Ishchi kuchi kerak, "Ayollar daftar"ga kiritilgan 10 nafar ayolni mavsumiy ish bilan band qilganmiz. Maosh qovunning kilogramiga qarab hisoblanadi.

Qovun qoqi tayyorlashning o'ziga xos usuli bor. Qovun o'rtaidan teng ikkiga ajratilib, urug'i olingach, pallalar eni 3-4 santimetr qilib tilimlanadi, pichoq orqali po'stidan ajratiladi va o'rta oxirigacha kesilmay bir juft qilib osib qo'yiladi.

Bugun o'rta narxi 12-15 ming so'm orasida. Qadoqlangach, narx ikki barobar ortadi. Har kuni buyurtma qabul qilamiz. Kuniga 200 kilo, 500 kilo, hatto 1 tonnagacha buyurtma olamiz. Qovun po'chog'ini ham tashlab yubormaymiz, quritib, chorva uchun g'amlaymiz, bir qismini sotamiz. Urug'i ham shunday. Qovun urug'idan yog' olinadi, dori-darmon sanoatida foydalaniladi. Mahallamizda bekor yurgan odam yo'q, hamma ish bilan mashg'ul.

Qovun qoqi yurtimiz milliy brendiga aylanishi uchun qishloq ahli harakat qilmoqda. Ularning ta'kidlashicha, bu yerda, avvalo, sayyohlar e'tiborini qaratish zarur.

IKKI YARIM MING YILLIK TARIXGA EGA KOVOS BAG'RIDA BEBAHO XAZINA YASHIRIN

Ma'lumotlarga ko'ra, Xovos — Sirdaryo viloyatida qadimiy go'shalaridan biri. Bu shahar zamonlar osha davrlar silsilasida qaymon bo'lib, ko'milib ketgan. Uning o'mida Xovostepa yodgorligi qad rostlagan. Shahar qadimida katta hududni egallagan. Hozirgi kunda uning 1 gektardan ziyod ark qismi, shahristonning 11 gektarlik qismi tepalik ostida vayron holda saqlanib qolgan.



Shahristonning ba'zi o'rinlari va rabotlari yo'q bo'lib ketgan. Arxeologlar bu yodgorlikni o'rganish uchun ko'p yillardan buyon qazishma ishlari olib bormoqda.

— Xovosda 28 ta tabarruk qadimgo bo'lgan, — deydi "Xovosobod" MFY yoshlar yetakchisi Farrux Ashurbayev. — 12 tasi hozirgacha saqlanib qolgan. "Xasti buzurgon" ziyoratgohi — ularidan biri, bu yerda "Xasti buzurgon" nomi bilan ulug'langan Jobir boboning qabri joylashgan.

Rivoyat qilishlaricha, Jobir bobo Xovos va uning atroflariga arab o'lkalaridan kelgan. Bu inson Xovosni obod qilishda qatnashgan va xalq o'rtasida ilm-ma'rifat tarqatgan. Shu sababli "Xasti buzurgon", deya ehtirom ko'rsatilgan.

Bugungi kunda Xovos tarixini o'rganish va uni targ'ib qilish, Xovostepa yodgorligi hamda unga yondosh ziyoratgohlarni sayyohlik markazlariga aylantirish uchun jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yerdan topilgan arxeologik buyumlar — uy-ro'zg'or anjomlarining bir qismi "Ko'ha Xovos" muzeyidan joy olgan.

REJALAR YANGI MAQSADLARGA YO'L OCHMOQDA

16-20-oktabr kunlari Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi bo'lib o'tdi. Xalqaro tadbir O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Xorijiy davlatlar bilan turizm sohasidagi aloqalarni mustahkamlash, O'zbekistonga tashrif buyuradigan xorijlik sayyohlar sonini yanada oshirish hamda ko'proq investitsiya jalb qilishga asos bo'ldi. Tadbir davomida chet davlatlar hamda mahalliy turoperatorlar va turagentlar bilan bir qator anglashuv memorandumlari tuzildi.

Vyetnam davlatining "Hd fish & food commercial joint stock" kompaniyasi bilan hamkorlikda Sayxunobod tumanida turistik ekomajmua tashkil etish investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida 5 million dollarlik anglashuv memorandumini imzolandi, — deydi Sirdaryo

viloyat hokimligi turizm kotibiyati mudiri H. Mamatov. — Rossiyaning "Teorema med" kompaniyasi bilan hamkorlikda tibbiy diagnostika klinikasini tashkil etish bo'yicha 2.5 million dollarlik investitsiya loyihasini amalga oshirish maqsadida memorandum tuzildi. Bundan tashqari, Malayziyaning "Adventa" kompaniyasi bilan hamkorlikda tibbiy diagnostika klinikasini tashkil etish bo'yicha 15 million dollarlik investitsiya loyihasi, Quvaytning "Gulf investment house" kompaniyasi bilan hamkorlikda savdo va ko'ngilochar markazini tashkil etish loyihasini amalga oshirish maqsadida 126 million dollarlik memorandumga imzo chekildi.

Bu loyihalar amalga oshsa, viloyat turizm salohiyati yanada yaxshilanadi, Sirdaryoga kelayotgan sayyohlar oqimi ko'payadi. Bu, albatta, yangi ish o'rinlari yaratishga asos bo'ladi, aholi turmush tarziga yangi epkinlarni olib kiradi.

MILLAT FIDOYLARI

“Asl “shashmaqom”ni OVRO‘PO NO‘TASIG‘A SOLIB BO‘LMAS”

“Bizning o‘zbek kuylarining ko‘pida chorak va nimchorak tovushlar bor. Mana bu tovushlarni olmoq uchun esa Ovrupo no‘tasi yetishmaydur, bularsiz bizning kuylarni no‘taga olib bo‘lmaydir. Men buni o‘z tajribam bilan ko‘rdim. 1923-yilda Moskovda tahsilda vaqtida musiqiyshunos o‘rtoq Miro‘nuf bilan birgalikda ko‘p harakatlarni orqasida bir necha o‘zbek kuylarini no‘taga olib, bostirib chiqardik, shuningdek, o‘rtoq Uspinskiy tarafdin “Shashmaqom” va boshqa kuylar no‘taga olindi. Endi bu Ovrupo kuylari bilan yig‘ilgan o‘zbek kuylarini choldirib, o‘qitib ko‘rsak, ajabo, asl kuyni eshita olamizmi? Shunga qanoatlanamizmi? Albatta, yo‘q!”

Sobiq masjid qorisi, jahon yulduzi — Muhiddin qori Yoqubov nima uchun sho‘ro hukumatiga dushmanlikda ayblangan?



orzusi O‘zbekistonda opera san‘atini yaratish va shu operada bosh rollardan birini ijro etish edi”, deb yozadi...

esa “Yo‘qolsin bolsheviklar!” degan yashil tasmalarni osib, Qo‘qon va atrofdagi qishloqlarga borib, turkcha marshlar kuylab, aholini to‘plardi. Davraga hukumat vakillari yoki taniqli ulamolalar chiqib, muxtoriyatni qo‘llab-quvvatlash haqida ma‘ruzalar qildirdi. Yig‘inlar bayramona tus olar, “Yashasin muxtoriyat”, “Hamma hokimiyat muxtoriyatga!” shiorlari ostida xalqni bolsheviklarga qarshi qo‘lga qurul olishga da‘vat etish bilan tugardi. Afsuski, Turkiston muxtoriyati hali beshigidayoq bo‘lg‘izladi, istiqloq istagida yongan yuraklar tindi, orzular sarobga aylandi. Qizil askarlar tomonidan to‘pga tutilgan Qo‘qon bozorlari yondirildi, arman doshnoqlari qo‘li bilan “o‘liklar shahr”ga aylantirildi. Ko‘p o‘tmay bolsheviklar butun Farg‘ona vodiysini qonga botirdi.

Qisqa muddatda o‘z atrofiga iqtidorli yigitlarni jamlagan Muhiddin qori Yoqubov uchun endi ortga yo‘l yo‘q edi. U Quvudagi Farg‘ona qo‘rboshilari qurultiyida ishtirok etadi. Bir muddat Sag‘irboyvachcha, Muhammad Aminbek (Madaminbek) yigitlari orasida bo‘ladi. Qon kechib, yurt istiqloq deb jonini tikkan mard o‘g‘lonlar uchun Qur‘on tilovat qilib, Allohdan zafar tilar, ularning kayfiyatini ko‘tarish maqsadida kuylar edi. Hofizning ovozigacha cheksiz dard, xalq boshiga tushgan mislsiz xo‘rlar ifodasi bo‘lgan mungli nola muhrlandi. Qaysi mavzuda, qaysi janrda kuylamasin, xalq yurakdan chiqayotgan bu dardni osongina tuyar edi. Bir paytlar Turkiston muxtoriyati prezidiumida o‘tirgan To‘taboy Dadoboyev sovetlardan mansab olgach, 1919-yil boshida Turkistonning Farg‘ona xalq puflama orkestri xodimi sifatida Muhiddin qori Yoqubovni ham yigitlari bilan “tinch hayot”ga qaytishga ko‘ndiradi. Bir muddat o‘tgach esa qori Yoqubov Hamza teatr truppassi safida Toshkentga keladi.

— Jadidlarining ilk teatri hisoblangan “Turon” qahramonimiz hayotida qanday ahamiyat kasb etdi? Uni o‘zbek milliy operasini yaratish uchun Italiyaga borishga kim ko‘ndirgan?

bildiradi, biroq sho‘ro ma‘murlaridan ruxsat tegmaydi. 1922-1924-yillar Moskvada taniqli rejissyor Meyerxold, Sobinov, Nejdanov, Obuxov kabi atoqli rus qo‘shiqchilari bilan tanishib, ijodiy hamkorlik qildi. Sharq va G‘arb musiqiy qadriyatlarini qiyosiy o‘rgana-di. Ayni paytda Meyerxoldning yordami bilan Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida adabiy-badiiy to‘garak tashkil etadi. Bu yerda Muhiddin nafaqat Moskvaning kazo-kazolari, balki xorijiy elchilarning ham hurmatini qozonadi. Turk va afg‘on elchilari tomonidan o‘z yurtlariga taklif qilinadi. Uning noyob ovozi qarshisida Moskvaning mashhur konsert zalari eshiklari ochiladi. Shu tariqa bir vaqtlar masjid qorisi bo‘lgan Muhiddin Yoqubov o‘zbek san‘ati olamiga kirib keladi va abadiy o‘rin topadi.

— 1926-yilgi “Yer yuzi” jurnalining 6-sonida “Parijda o‘zbek san‘ati” nomli maqola e‘lon qilinadi. Unda “O‘zbek xalq ashulachisi Muhiddin qori Yoqub

avvalgilarga qaraganda katta edi. Chunki avvalgisida, ya‘ni O‘zbekistonning bir yillik bayrami kechasida yuzlab xalq oldida bo‘lsa, bunisi minglab kishi qarshisida edi. Kunchiqishning qo‘pol xalqidan ham bir narsa chiqamikin... deb o‘tirgan minglab xalq o‘zbek ohanglarini eshitgach, ixtiyorsiz qiymat berishga, uzoq oqishlamoqqa majbur bo‘ldi. Albatta, bu birinchi marotaba bo‘lsa kerak, o‘zbek qo‘shig‘i va o‘yinlari G‘arbiy Ovrupa xalqi oldida ijro etildi. Birinchi marotabadanoq kutilgan darajadan ortiqroq muvaffaqiyat qozondi. Berlin ashulashunoslari Muhiddin qorini huzurlarida imtihon qilib ko‘rdilar. Muhiddin qori o‘zining Ovrupa o‘qish tilagi borligini bildirganda, ular bunga maslahat bermadilar. Muhiddin qori hozir Farg‘onada o‘zbekning yo‘qolish oldida turgan eski ashula va kuylarini to‘plamoqdadir. Ashulalarning xuddi tabiiy kuyni saqlamoqlik uchun yaqinda Berlin dan keltirilgan fonograf uskunasi bilan ish ko‘rsa

qadimiy ohanglar, ashula va raqs ekanini chiqur anglagan Muhiddin qori Yoqubov bu san‘at durdonalarining qanchadan-qanchasi unutilib ketgani, qolganlari ham unutilish xavfi ostidalgini yaxshi bilardi. U o‘zbek etno-folklor asarlarini to‘plash, o‘rganishga bel bog‘laydi.

— Ulug‘ san‘atkorimizning ayni o‘sha maqsadlari haqidagi maqolasi ham tillarda doston bo‘ladi. O‘sha maqolada bildirilgan mulohazalar bizni qiziqtiradi...

— Qori Yoqubiy “O‘zbek kuylarini qanday saqlash mumkin?” nomli maqolasida uzoq yillardan beri xalq bastakori va shoirlarimiz tomonidan yozilib, ular og‘zidan aytilib kelgan, ota-bobolarimizdan meros qolayotgan qimmatli, boy o‘zbekcha kuylarimiz zamonning o‘tishi bilan yo‘qolish darajasiga kelib qolgan haqida tashvish bilan so‘z yuritadi. Zamon o‘tgan sari turmush, bunga qarab xalqning fikri, hissiyoti o‘zgaragidek, xalq shoirlarining ijodiyotida ham bir qancha yangiliklar yaratilayotgani, biroq borgan sari eski kuylar uzoq burchaklarda, eski xalq shoirlaridagina qolayotganini ta‘kidlaydi. “Bu ketishda bir necha yil o‘tmasdan eski o‘zbek kuylari o‘ramizdan yo‘qoladi. Yangi bir asar yaratilmoqlikda eskilar ancha yordam beradi, eshikliganda yangilar ancha mukammal bo‘ladi. Mana buning uchun eski kuylarimizni saqlash chorasini hozirdan ko‘rishimiz kerak”, deydi muallif.

Ayniqsa, san‘atkorimiz “Ovrupo musiqasiga, kuylariga nazar solsak, har bir kuyni no‘tag‘a olish bilan saqlab qolmoqda ekanini ko‘ramiz. Bizda no‘ta yo‘q. No‘ta bo‘lg‘onda ham kuylarimizni saqlab qolgan bo‘lardik. U kuylarning yo‘li, maqomi, tuzilishi va xalqqa bo‘lg‘on taassuroti bilan yangi nasrlarimiz ham oshno bo‘lib, shuning orqasida o‘zbek musiqasida o‘zbek tarixi taraqqiyotini yo‘qotmasliqqa ega bo‘lar edik”, degan so‘zlari ko‘plab ijod ahli va ziyolilarni o‘ylantirib qo‘yadi.

Muhiddin qori Yoqubovning “Ajabo, biz ham kuylarimizni Ovrupo no‘tasiga olib, doim saqlab kelsak bo‘lmaydimi?.. Faqat o‘zbek kuylarini no‘tag‘a olinishini o‘ylaganimizda yana shunday masala kelib chiqadiki, o‘zbek kuylarini hozir no‘taga olinamizmi, yo‘qmi? Basharti, og‘onimizda bizda no‘ta yo‘q, albatta, Ovrupo no‘tasiga olinadi. Menimcha, Ovrupo no‘tasiga olish mumkin emas”, degan xulosalari ko‘plab davralarda qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ladi.

O‘zbek kuylarining ko‘pida chorak va nimchorak tovushlar borligi, bu tovushlarni o‘lmoq uchun Yevropa notasi yetishmasligi, bu tovushlarni o‘lmasdan bizning kuylarni notaga solib bo‘lmayligi alohida qayd etiladi. “Men buni o‘z tajribam bilan ko‘rdim. 1923-yilda Moskvada tahsilda vaqtida musiqiyshunos o‘rtoq Miro‘nuf bilan birgalikda ko‘p harakatlarni orqasida bir necha o‘zbek kuylarini no‘taga olib bostirib chiqardik, shuningdek, o‘rtoq Uspinskiy tarafdin “Shashmaqom” va boshqa kuylar no‘taga olindi. Endi bu Ovrupo kuylari bilan yig‘ilgan o‘zbek kuylarini choldirib, o‘qitib ko‘rsak, ajabo, asl kuyni eshita olamizmi? Shunga qanoatlanamizmi? Albatta, yo‘q”, deydi Muhiddin qori Yoqubov.

— Muhiddin qori 1926-yil 6-aprelda O‘zbek davlati ko‘chma konsert etnografiya truppassi bosh rejissyori va rahbari etib tayinlanadi. U jamoasi bilan xalq orasiga kirib, qisqa muddatda 600 ga yaqin o‘zbek mumtoz va xalq qo‘shig‘ini yig‘adi. Bu yo‘ldagi zaruriy xarajatlar uchun hatto Farg‘onadagi otasidan meros qolgan uyni ham sotishga majbur bo‘lgan rosmi?

— Qarang, ustoz san‘atkorimiz milliy merosimizga qanchalar fidoyi munosabatta bo‘lgan. Jamoa yig‘ilgan mumtoz ashulalarasini tezda qayta ishlab, Samarqandda namoyish etadi. Konsert kutilganidan ham yaxshi qarshi olinadi. Bu etnografik trupa 1927-yil apreldan 1-oktabriga qadar butun ittifoq bo‘ylab ijodiy safarga chiqadi. Moskva, Leningrad, Kiyev, Tbilisi kabi ko‘plab shaharlarda 100 ga yaqin konsert uyushtiriladi. Ayniqsa, Qozon, Ufa, Boku shaharlarida Muhiddin qori Yoqubovning noyob ovozi jaranglay boshlashi bilan butun xalq oyoqqa turar, Tamarxonim “Katta o‘yin”, “Usmoniya” raqsalarini ijro etganidan keyin ko‘tarilgan guldor oqishlar bu raqsalarini yana ijro etishga majbur etardi. O‘zbek xalqining asrlar mobaynida saqallanib kelgan musiqiy san‘ati hammani qatn etadi. Bu o‘zbek san‘atining endi sho‘rolar mamlakatidagi haqiqiy tantanasi edi.

— 1937-yil may oyida Moskvada birinchi marta o‘zbek san‘ati dekadasida “Gulsara” spektakli bilan ochildi. “Izvestiya” gazetasi shu tantanalik kun haqida gazetxonlariga “Qori Yoqubovning



1952-YIL 3-IYUL KUNI MUHIDDIN QORI YOQUBOVGA 1918-YIL “SHO‘ROI ISLom” A‘ZOSI BO‘LG‘AN, TURKISTON MUXTORIYATINI TASHVIQ QILGAN, 1920-1921-YILLAR SAG‘IRBOYVACHCHA YIGITLARI ORASIDA QIZIL ARMIYAGA QARSHI TARG‘IBOT OLIB BORGAN, “MILLIY ITTIHOD”, “MILLIY ISTIQLOL” AKSILINQILOBIY TASHKILOTLAR A‘ZOSI KABI AYBOLVILAR BILAN QAROR CHIQRILADI. 1952-YIL 4-IYULDA BERILGAN ORDER ASOSIDA HIBSGA OLINADI.

kerak. Muhiddin qorida o‘zbek yigitlari va qizlaridan iborat bir etnografiya truppassini tuzish fikri bor. Bu trupa tuzilsa, tashkiliy sur‘atda ish ko‘rmak mumkin bo‘lg‘usidir”.

Safarning so‘nggi kunlarida, Eyfelga sayohat vaqtida shamollab qolgan Tamaraxonim yuqori isitma oqibatida homilasidan ayriladi. U og‘ir holatda Parij yaqinidagi Bulon o‘rmonida joylashgan sanatoriyda yotishga majbur bo‘ladi. Kasalxonaga ularni ko‘rgani Majid Qodiriy, Xolmuhammad Oxundiy, sovet elchixonasi huquqshunosi Alekseyev, Peterburgda birga o‘qigan do‘sti Mustafa Cho‘qay keladi. Mustafa Cho‘qay keyin yana o‘zi kelib, Kashaiboyev va uning san‘ati haqida iliq fikrlar bildiradi. Sovet gazetalarida bildirilayotgan munosabatlarning qanchalik hayotga mos kelishini haqida surishtirdi. Germaniyada o‘qiyotgan turkistonlik bir guruh talabalar tadbir e‘lonidan xabar topib, Parijga yetib kelgan edi. Temurbek Qazbekov, To‘lagan Mo‘min, Sulton Matqul navbat bilan u yerda tilmochlik qiladi. Muhiddin qori Yoqubov 1925-yil 1-noyabr kuni ularning taklifi asosida Berlinga keladi. Uni Berlin vokzalida Olimjon Idrisiy rahbarligida talabalar bayramona kutib oladi. Bu yerda Muhiddin qori Yoqubov talabalar uyida ikki oy Aziz Xo‘jayev bilan hamxona bo‘lib yashaydi.

Uning Germaniyada o‘tkazgan barcha tadbirlarida Abdurahob Murodiy hamrohlik qiladi. Muhiddin qori Yoqubov o‘z san‘ati bilan olmon xalqining ham e‘tiborini qozongan. Berlingada Shubert-hollida, Berlin konservatoriyasida o‘zbek talabalari ishtirokida jami 4 ta konsert berdi. Germaniyaniy mashhur professorlari bilan uchrashib, fikr almashdi. O‘n kun davomida uning qo‘shilari olmon radiosida jarangladi. Matbuotda olmon san‘atshunosi olimlarining “Ushoq”, “Chorg‘on”, “G‘ayraya”lar orqali o‘zbek milliy musiqasana‘atining naqadlar boy va jozibali ekanini haqidagi maqolalari chop etildi.

Dekabr oxirida shifoxonadan chiqqan Tamaraxonim bir hafta Berlinga bo‘ldi. 1925-yil 10-iyulda Moskvadan chiqib ketgan juflik 1926-yil 1-yanvar kuni qaytib keladi. Ularni “Metropol” mehmonxonasida shaxsan Akmal Ikromov kutib olgan. O‘zbekiston rahbari Germaniyadagi talabalarning ahvoli, san‘atkorning keyingi rejalarini bilib qiziqadi. Moskvada bir oylik davolanishdan so‘ng ular Samarqandga kelib, Germaniyada niyat qilgan o‘zbek etnografik truppassini tuzishga kirishadi. Bu ishda uni mutafakkir Fitrat va shoir Cho‘lpon qo‘llab-quvvatlaydi. Ovrupoda unga cheksiz shuhrat olib kelgan omil aslida o‘zbek xalqi yaratgan

Ushbu mulohazalar muallifi Muhiddin qori Yoqubov birinchi o‘zbek bariton xonandasi, O‘zbek filarmoniyasi tashkilotchisi va badiiy rahbari edi. Lekin uning sho‘ro hukumati dushmani deb topilishiga sabab bo‘lgan omillar haqida lom-mim deyilmagan. Qatag‘on qurbonlari xotirasini muzeyi mas‘ul xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Bahrom IRZAYEV bilan suhbatimizda Muhiddin qori Yoqubov hayot yo‘lining shu jihatlari haqida ko‘proq ta‘alib o‘tishni lozim topdik.

— Muhiddin qori Yoqubov o‘zbek qo‘shiq va raqs ansambli, o‘zbek musiqali teatri, o‘zbek opera studiyasi, birinchi o‘zbek opera va balet teatri tashkilotchisi, badiiy rahbari, rejissyori va artistidir. Qolaversa, qator orden-medallar sohibi, Turkistonning birinchi xalq hofizi (1923), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi (1930), O‘zbekiston xalq artisti (1936) unvonlarini olgan. Uning qalбини bolaligidanoq mustamlakachilarga kuchli nafrat egallagan rosmi?

— Muhiddin qori Yoqubov 1896-yil may oyida Farg‘ona shahrida dunyoga keladi. Uning otasi Muhammad Yoqub Salim o‘g‘li o‘zi yashagan Yangiyech mahallasidagi Orifonboy masjidi imomi bo‘lgan. Ayni vaqtda masjididagi maktabda dars bergan. 1898-yilda Dukchi eshon qo‘zg‘olonida ishtirok etgan. Isyon chor hukumati tomonidan shafqatsizlaracha bostirilgan. Yuzlab kishilar dorga osilgan. Mingtepadan qochgan Muhammad Yoqub vosvos xastaligiga duchor bo‘lib, ko‘p o‘tmay vafot etdi. Ikki yoshida otasidan yetim qolgan Muhiddinjon o‘gay ota qo‘lida tarbiyalanadi.


Muhiddin 1904-1905-yillar Orifonboy masjidadagi maktabda o‘qiydi. 1908-yildan maktabdagi qorixonaga qatnab, Qur‘oni karimni yod olishga kirishadi. 1910-yildan Orifonboy masjidadagi turli diniy marosimlarda xizmat qiladi. O‘tkir zehni, yoqimli ovozi bilan tez orada el og‘ziga tushgan Muhiddin qori otasining do‘stlari, Farg‘onaning taniqli insonlari Orifonboy, Rajabboy, Qalandar devonaboy davrasida kamol topdi. 1916-yili mardkorlikka olish voqealari va unga qarshi xalq qo‘zg‘oloni shafqatsiz bostirilishi guvohi bo‘ldi. Bu voqealar ta‘sirida Muhiddin qori qalbidan mustamlakachilarga qarshi nafrat tuyg‘usi shakllandi. 1917-yil aprel-may oylarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida “Sho‘roi islom” jamiyatlarini tuzila boshlandi. Jadidlarim Turkistonga ozodlik talab qiluvchi g‘oyalarni eshitgan Muhiddin qori birinчилardan bo‘lib “Sho‘roi islom”ga a‘zo bo‘ladi. Turkiston muxtoriyati e‘lon qilinishi bilan Qo‘qon shahriga kelib, uning yetakchilari Obidjon Mahmudov, Mahmudxon Ahmadxonov, andijonlik Nurali mingboshi, farg‘onalik savdogarlar Mirodiboy, Shotursun, Shohaydar, Rajabboy Inog‘omov va yaqindagina mardkorliklarda qaytib, muxtoriyat hukumati uchun kurashga bel bog‘lagan Sag‘irboyvachcha bilan tanishadi. Muxtoriyat taklifi bilan Hodi Fayzi tomonidan ochilgan jadid drama to‘garigiga qatnab, xalqni jangovarlikka chorlovchi turkcha marshlarni o‘rgana-di.

— Muhiddin qori Yoqubov Hamza Hakimzoda Niyoziy rahbarligida san‘atkorlardan iborat bir necha targ‘ibot guruhi tuzilishida qatnashgani rosmi? U Farg‘onadagi qo‘rboshilar qurultiyida ham ishtirok etgan, degan ma‘lumotlar bor.

— Xuddi shunday. Hamza tashviqot guruhlarini “Musulmon yoshlar dramatik truppassi” deb nomlab, ular uchun qo‘shiqlar va sahna ko‘rinishlari yozardi. Muhiddin qori Yoqubov ham bir yelkasi osha “Yashasin muxtoriyat!”, ikkinchi yelkasi osha



1952-YIL 3-IYUL KUNI MUHIDDIN QORI YOQUBOVGA 1918-YIL “SHO‘ROI ISLom” A‘ZOSI BO‘LG‘AN, TURKISTON MUXTORIYATINI TASHVIQ QILGAN, 1920-1921-YILLAR SAG‘IRBOYVACHCHA YIGITLARI ORASIDA QIZIL ARMIYAGA QARSHI TARG‘IBOT OLIB BORGAN, “MILLIY ITTIHOD”, “MILLIY ISTIQLOL” AKSILINQILOBIY TASHKILOTLAR A‘ZOSI KABI AYBOLVILAR BILAN QAROR CHIQRILADI. 1952-YIL 4-IYULDA BERILGAN ORDER ASOSIDA HIBSGA OLINADI.



— Muhiddin qori Yoqubov jadidlarining ilk teatri “Turon”da Fitrat, G‘ulom Zafariy bilan tanishdi. “Turon”da 1919-yillarda Hamza, Mannon Uyg‘ur, Qudrat Maxzumov bilan Fitratning “Chin sevish”, “Abomuslim”, G‘ulom Zafariyning “Erk bolalari”, “Azizim”, “Halima” asarlarini sahnaga olib chiqdi. 1919-1920-yillar “Chig‘atoy gurungi”da Fitratning “Sharq” she‘ri o‘qib, qalblarni larzagacha soldi. “Chig‘atoy gurungi”da Shokirjon Rahimiy, Botu, Oltoy, Bosit, Abror Hidoyatov kabi yoshlar bilan tanishib, ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

1921-yili Buxoroga borgan Muhiddin qori azaliy orzusi — Masjidi Kalonda tilovat qiladi. Uning sehirli ovozigacha guvoh bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev 1000 so‘m berib, o‘zbek milliy operasini yaratish uchun Italiyada o‘qib kelishni tavsiya qiladi. 1922-yil “Ko‘mak” jamiyati tomonidan Moskvaga yo‘llangan yoshlar orasida Muhiddin qori Yoqubov ham bor edi. U Moskvadagi Davlat teatr san‘at instituti vokal bo‘limida tahsil olishni boshlaydi. Muhiddin Italiyaga borib o‘qish istagini

o‘g‘li Parij teatrlarida o‘zbekning najot istagan, yuraklaridan chiqqan qadimiy, ohangdor navolari bilan birga, hozirgi tirik kuylarini o‘zbekka xos xususiyat bilan g‘arbiylar oldida ijro etdi”, degan so‘zlar bor. Muhiddin va Tamaraxonimning haqiqiy jahon yulduzlariga aylinishida Fransiyada bo‘lib o‘tgan namoyishlar qanchalik ahamiyatli bo‘lgan deb o‘ylaysiz?

— Muhiddin qori Yoqubov 1923-yili Turkistonda hisobot gastrol konsertlar o‘tkazib, “Turkistonning birinchi xalq hofizi” faxriy unvoni bilan Moskvada o‘zbek milliy musiqiy merosini ilmiy tadqiq etishga kirishadi. 1925-yil Parijdagi jahon ko‘rgazmasiga SSSRdan yuborilgan 19 kishilik san‘atkorlar guruhida ozarbayjonlardan Shavkat xonim Mamedova, qozoq o‘qini Amri Kashaiboyev, boshqird quray chaluvcisi Esanboy bilan Muhiddin qori Yoqubov va turmush o‘rtog‘i Tamaraxonim ham bor edi. Bir oy davom etgan namoyishlarda Muhiddin va Tamaraxonim haqiqiy jahon yulduzlariga aylandi. Shu o‘rinda siz ta‘kidlab o‘tgan maqolani to‘liqroq keltirib o‘tmoqchiman: “Qori Yoqubovning rahisqasi Tamaraxonim o‘zbek qizining o‘ynoqlag‘on onlarini (momentlari) bundan ko‘prak g‘amgin, hasratlik kunlarini ma‘nodor raqsalar bilan qavdalantirdi. Muhiddin qori va Tamaraxonimning qishloq yigitlari bilan qizlarining lapan aytishib, o‘ynashib yurganlarini ko‘rsatishlari har kuni yangi bir zavq istagan parjiliklarda boshqacha shavq uyg‘otdi. Qishloqlaridagi ishloqning qanchalik tabiiy va chiroylik ekani ularga yoqdi. Ashulachilarimiz oqishlar orasida sahnada qayta-qayta ko‘rilmakka majbur bo‘ldilar.

Ashulachilarimiz qaytarda Germaniyaning poytaxti Berlinga to‘xtadi, u yerdagi maorif vakolatxonamiz va o‘quvchilarimiz tantanalik kecha yasadilar. Bunda bir qancha muvaffaqiyatli chiqishlarda bo‘lganlar. Muhiddin qori so‘ngra Berlining yuqori ashula va musiqaga maktabida (filarmoniyasida) yana kattaroq muvaffaqiyatlarga erishdi. Filarmoniyadagi chiqish, albatta,

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DUK Bosh muharrir: Salim DONIYOROV MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter makzabida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146. 43313 nusxada bosildi. Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova Dizayner: Zafar Ro‘ziyev Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy Topshirildi — 03:15